



Taqiqot.uz



АНДУМАН | КОНФЕРЕНЦИЯ | CONFERENCES

O'ZBEKISTONDA ILMIY TADQIQOTLAR: DAVRIY ANJUMANLAR

DAVRIYLIGI: 2018 | 2022



2022
ДЕКАБР
№47



CONFERENCES.UZ

Toshkent shahar, Amir
Temur ko'chasi, pr.l, 2-uy.

+998 97 420 88 81

+998 94 404 00 00

www.taqiqot.uz

www.conferences.uz

**ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ
ТАДҚИҚОТЛАР: ДАВРИЙ
АНЖУМАНЛАР:
8-ҚИСМ**

**НАЦИОНАЛЬНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ
УЗБЕКИСТАНА: СЕРИЯ
КОНФЕРЕНЦИЙ:
ЧАСТЬ-8**

**NATIONAL RESEARCHES OF
UZBEKISTAN: CONFERENCES
SERIES:
PART-8**

ТОШКЕНТ-2022



УУК 001 (062)
КБК 72я43

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” [Тошкент; 2022]

“Ўзбекистонда илмий тадқиқотлар: Даврий анжуманлар:” мавзусидаги республика 47-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 декабрь 2022 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2022. - 31 б.

Ушбу Республика-илмий онлайн даврий анжуманлар Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналишлари бўйича Ҳаракатлар стратегиясида кўзда тутилган вазифа - илмий изланиши ютуқларини амалиётга жорий этиш йўли билан фан соҳаларини ривожлантиришга бағишлиланган.

Ушбу Республика илмий анжуманлари таълим соҳасида меҳнат қилиб келаётган профессор - ўқитувчи ва талаба-ўқувчилар томонидан тайёрланган илмий тезислар киритилган бўлиб, унда таълим тизимида илгор замонавий ютуқлар, натижалар, муаммолар, ечимини кутаётган вазифалар ва илм-фан тараққиётининг истиқболдаги режалари таҳтил қилинган конференцияси.

Масъул муҳаррир: Файзиев Шохруд Фармонович, ю.ф.д., доцент.

1.Хуқуқий тадқиқотлар йўналиши

Профессор в.б.,ю.ф.н. Юсувалиева Раҳима (Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети)

2.Фалсафа ва ҳаёт соҳасидаги қарашлар

Доцент Норматова Дилдора Эсоналиевна(Фаргона давлат университети)

3.Тарих саҳифаларидағи изланишлар

Исмаилов Ҳусанбой Маҳаммадқосим ўғли (Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамаси хузуридаги Таълим сифатини назорат қилиш давлат инспекцияси)

4.Социология ва политологиянинг жамиятимизда тутган ўрни

Доцент Уринбоев Хошимжон Бунатович (Наманган мухандислик-қурилиш институти)

5.Давлат бошқаруви

Доцент Шакирова Шохида Юсуповна «Тараққиёт стратегияси» маркази муҳаррири

6.Журналистика

Тошбоева Барнохон Одилжоновна(Андижон давлат университети)

7.Филология фанларини ривожлантириш йўлидаги тадқиқотлар

Самигова Умида Хамидуллаевна (Тошкент вилоят халқ таълими ходимларини қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш худудий маркази)



8.Адабиёт

PhD Абдумажидова Дилдора Раҳматуллаевна (Тошкент Молия институти)

9.Иқтисодиётда инновацияларнинг тутган ўрни

Phd Воҳидова Меҳри Ҳасанова (Тошкент давлат шарқшунослик институти)

10.Педагогика ва психология соҳаларидағи инновациялар

Турсунназарова Эльвира Тахировна Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети Хорижий тиллар факультети ўкув ишлари бўйича декан ўринбосари

11.Жисмоний тарбия ва спорт

Усмонова Дилфузахон Иброҳимовна (Жисмоний тарбия ва спорт университети)

12.Маданият ва санъат соҳаларини ривожлантириш

Тоштемиров Отабек Абидович (Фарғона политехника институти)

13.Архитектура ва дизайн йўналиши ривожланиши

Бобоҳонов Олтибай Раҳмонович (Сурхандарё вилояти техника филиали)

14.Тасвирий санъат ва дизайн

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

15.Мусиқа ва ҳаёт

Доцент Чарiev Турсун Хуваевич (Ўзбекистон давлат консерваторияси)

16.Техника ва технология соҳасидаги инновациялар

Доцент Нормирзаев Абдуқаюм Раҳимбердиевич (Наманганд мухандислик-курилиш институти)

17.Физика-математика фанлари ютуқлари

Доцент Соҳадалиев Абдурашид Мамадалиевич (Наманганд мухандислик-технология институти)

18.Биомедицина ва амалиёт соҳасидаги илмий изланишлар

Т.Ф.д., доцент Маматова Нодира Мухтаровна (Тошкент давлат стоматология институти)

19.Фармацевтика

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

20.Ветеринария

Жалилов Фазлиддин Содиқовиҷ, фарм.ф.н., доцент, Тошкент фармацевтика институти, Дори воситаларини стандартлаштириш ва сифат менежменти кафедраси мудири

21.Кимё фанлари ютуқлари

Рахмонова Доно Қаҳхоровна (Навоий вилояти табиий фанлар методисти)



22.Биология ва экология соҳасидаги инновациялар

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

23.Агропроцессинг ривожланиш йўналишлари

Проф. Хамидов Муҳаммадхон Ҳамидович «ТИИМСХ»

24.Геология-минерология соҳасидаги инновациялар

Phd доцент Қаҳҳоров Ўқтам Абдурахимович (Тошкент ирригация ва қишлоқ хўжалигини механизациялаш мухандислари институти)

25.География

Йўлдошев Лазиз Толивович (Бухоро давлат университети)

Тўпламга киритилган тезислардаги маълумотларнинг хаққонийлиги ва иқтибосларнинг тўғрилигига муаллифлар масъулдор.

© Муаллифлар жамоаси

© Tadqiqot.uz

PageMaker\Верстка\Сахифаловчи: Шахрам Файзиев

Контакт редакций научных журналов: tadqiqot.uz

ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz

Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.

Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000

АДАБИЁТ

1. Keldiyorova Dinora Islom qizi, Hamroyeva Gulmira	
O'TKIR HOSHIMOVNING O'ZBEK XARAKTERINI YARATISH MAHORATI	7
2. Niyazmetova Gulasal	
"BIBIXONIM QISSASI" VA "SOHIBQIRON NABIRASI" QISSALARIDATEMURNING IKKINCHI XOTINI SAROY MULKI XONIM OBRAZI.....	9
3. Asqarova Oydin Qahramon qizi, Olimova Kamola Komil qizi, Rasulova Maftuna Qayimovna	
ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH.....	12
4. Atojonova Sadokat Xaitbayevna	
XUDOYBERDI TO'XTABOYEV IJODINI O'RGANISH.....	14
5. Hamrayeva Nargiza Abdumannonovna	
PO'LAT MO'MIN – BOLALAR QALBINING BILIMDONI	15
6. Ochilova Mayram Hamroyevna	
ERKIN VOHIDOV SHE'RLARINING MAZMUN - MOHIYATI	17
7. Galdiyeva Gulnaza, G'afforova Oltiboy	
ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI	19
8. Rustamova Hilola, Atayeva Zubayda	
YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI	21
9. Isayeva Manzura Omonovna, Kulshanova Rauan Pirnazarovva	
O'ZBEK TILI O'QITISH METODIKASI FANINING MAQSADI, VAZIFALARI, BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI	23
10. Mamatova Nargiza Saydjalolovna	
ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI.....	25
11. Vafoqulova Go'zal Ochilovna	
ADABIYOT DARSLARIDA MAHMUD KOSHG'ARIYNING "DEVONU LUG'ATIT-TURK" ASARI TAHЛИLI	27
12. Xaydarova Farida Abdumannobovna	
ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA –O'QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASHNING MUHIM OMILI	29



АДАБИЁТ

O‘TKIR HOSHIMOVNING O‘ZBEK XARAKTERINI YARATISH MAHORATI.

Keldiyorova Dinora Islom qizi
Jizzax davlat pedagogika universiteti
2-bosqich talabasi.
Ilmiy rahbar: Hamroyeva Gulmira

Annotatsiya: Ushbu maqolada O‘tkir Hoshimovning o‘zbek xarakterini yaratish mahorati yozuvchining "Ikki eshik orasi" romanidagi obrazlar va "Dunyoning ishlari" qissasidagi hikoyalalar misolida yoritib beriladi.

Kalit so‘zlar: Orif oqsoqol, Husan Duma, Qora amma, Kimsan, Robiya, ona, urush

Annotation: this article will be created using the example of O‘tkir Hoshimov's images in the novel "Between Two Doors" and "His complaints" in the story of the affairs of the world

Keywords: Orif oqsoqol, KHusan Duma, Qora amma, Kimsan, Robia, mother, war

Аннотация: В этой статье будут созданы образы Уткира Хашимова в романе "Между двумя дверями" и "Его жалобы в " истории дел мира.

Ключевые слова: Ариф аксакал, Хусан Дума, Кара Амма, Кимсан, Робия, мать, война

XX asr o‘zbek adabiyotida munosib o‘rin egallagan, el ardoqlagan adib-O‘tkir Hoshimov o‘z asarlari orqali barchamizga ma’lum. Yozuvchining “Ikki eshik orasi”, “Bahor qaytmaydi”, “Tushda kechgan umrlar”, “Dunyoning ishlari” kabi roman ,qissa va hikoyalari nafaqat o‘zbek xalqi orasida,balki qardosh xalqlar orasida ham mashhurdir. Yozuvchi o‘z asarlari orqali davrning muhim ijtimoiy muammolarini, hayotning murakkab tomonlarini,qolaversa,o‘zbek xalqining xarakterini ochib bergen. Biz buni yozuvchining ”Ikki eshik orasi”, “Dunyoning ishlari” asarlari misolida ko‘rishimiz mumkin. “Ikki eshik orasi” O‘tkir Hoshimovning ijodida alohida o‘ringa ega bo‘lib, asar 1986-yilda yozilgan. Asar 7 qism, 47 bobdan tarkib topgan bo‘lib, undagi voqeahodisalar bayoni 9 ta personaj hikoyalardan tashkil topgan. Yozuvchining “Ikki eshik orasi” romanida insonlar taqdiri, hayotining naqadar murakkabligi tilga olinadi, shuningdek, romanda o‘zbek xalqining qiyofasi badiiy vositalar yordamida yoritib berilgan. Asarda o‘zbek xalqining xalqparvarligi va insonparvarligi,mardligi,sabr-matonati, mehmono‘stligi va boshqa shu kabi fazilatlari Orif oqsoqol, Husan Duma, Qora amma, Kimsan, Robiya kabi obrazlar orqali tasvirlangan. Asardagi obrazlar tavsifiga to‘xtaladigan bo‘lsak, har bir obraz asarda o‘z o‘rniga ega.Jumladan, asardagi Orif oqsoqol obrazi misolida o‘zbek xalqining xalqparvarligi, insonparvarligi ko‘rsatilgan quyidagi o‘rnlarni ko‘rishimiz mumkin:Robiya va uning dadasi Samadov No‘g‘ayqo‘rg‘onga kelayotganda Orif oqsoqolning vokzalda ularni kutib olish vaqtida Robiyaning bir burda nonga muhtoj ekanligini ko‘rib,qo‘lidagi soatni sotib non olib kelgani,muallim Samadov tuhmatga uchrab qamoqqa olinganida:”Haq joyida qaror topmaguncha qo‘ymayman”¹ deyishi uning insonparvarligidan dalolat bersa, Umar zakunchi No‘g‘ayqo‘rg‘onga rais bo‘lib kelganida:”Rais odamga shahardan qatnab yurish yarashmas, o‘zimizning xo‘jalikning boshlig‘iga uy topib bermasak, otimizga or itimizga nomus”², ”Belimda belbog‘im bor deganing ertaga hasharga”³ degan so‘zları Orif oqsoqolning g‘uruli, or-nomusli ekanligini ifodalaydi. Ushbu obraz xalq o‘rtasida katta obro‘ga ega bo‘lishiga qaramasdan ularni birlashtiruvchi, kerak bo‘lsa ularning musibatlarini ham o‘zinikidek ko‘rvuchchi, yelkama-yelka turuvchi fidokor shaxs.

Asarda Husan Duma obrazi ham o‘z o‘rniga ega. U asarda mehmono‘stlik, mard, shu bilan birgalikda g‘ururli shaxs sifatida ham tasvirlangan.Orif oqsoqol Robiya va dadasini Husan

1 O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” 52-sahifa

2 O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” 57-sahifa

3 O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi” 57-sahifa



Dumaning uyiga olib kelganida “Mehmon otangdan ulug”¹ [4] deb ularni kutib olishi va ularga o‘z uyidan alohida joy ajratib berishi uning mehmondo‘stligidan darak bersa, Kimsanni urushga ketayotganini eshitgan Qora amma uning bormasligini zor qaqshab so‘raganida Husan Dumaning: “Yurtga kelgan to‘y... Hamma urushga borsa, Kimsan toshbaqadek boshini ichiga tortib o‘tirs, yarashadimi”?²[5] degan so‘zları uning g‘ururlı va mard o‘zbek xalqining asardagi siymosi ekanligini bildiradi.

Asarda haqiqiy o‘zbek o‘g‘loni qiyofasi Kimsan obrazida mujassamlashgan.Kimsan oilada yolg‘iz farzand bo‘lib voyaga yetishiga qaramasdan,u ota-onas, ona-Vatan va hamqishloqlarining ishonchini oqlaydigan farzanddir.Orif oqsoqol ham uni urushga kuzatayotganida “Belida belbog‘i bor yigit ekansan”³[6] deyishi ham uning atrofidagilarning ishonchini oqlash uchun har qanday to‘sqliarga tayyor ekanligini bildiradi. Uning yozgan xatlarining birida keltirilgan quyidagi so‘zları ham so‘nggi nafasigacha Vatanni himoya qilgan o‘zbek o‘g‘lonining yorqin misolidir: “Mayli, o‘laman! Ammo, hech bo‘lmasa, bittangni o‘ldirib keyin o‘zim ham..”⁴[7]

Kimsan faqatgina urushda jasorat ko‘rsatib qolmay, balki muhabbatda ham jasoratli edi. Afsuski,urushning sovuq nafasi Robiya va Kimsanining muhabbatiga ham rahna soladi.

Ushbu asarda ayollar obrazı ham alohida o‘ringa ega. Jumladan, asardagi Qora amma obrazı ham muallif tomonidan fidokor, mehribon o‘zbek onasi sifatida tasvirlangan. Bir so‘z bilan aytganda, Qora amma urush davridagi o‘zbek onalarining siymosidir. Qora amma garchi hayot zarbalariga bir necha bor uchragan bo‘lsa-da, lekin hayotda yashashga kuch topa olgan haqiqiy o‘zbek ayolidir. U olti farzandini yerga qo‘ygan edi.Shulardan faqatgina Kimsan omon qoladi.

Ammo urush boshlanishi bilan Kimsan ham urushga ketishga majbur bo‘ladi. Kimsan urushda halok bo‘lsa-da, umrbo‘yi Kimsanning qaytishiga umid bilan yashaydi. “Mayli oyoq-qo‘lsiz bo‘lsang ham birov zambilda ko‘tarib kelsayam jon derdim”.⁴ [8] Qora amma faqatgina o‘g‘lining dardida emas, balki ko‘z o‘ngida Robiyaning kun sayin so‘lib borayotganidan, kelini Ra’noning ukasi Shomurodga xiyonatidan ham qattiq iztirobga tushadi. Ra’no hayotning past-u balandliklariga bardosh bera olmay xiyonat yo‘liga kirishi har bir kitobxonda unga nisbatan nafrat tuyg‘usini uyg‘otadi. Ammo hammasiga urush sabab edi.

Yana bir ayol obrazlardan biri-Robiya.U ham bir qator qiyinchiliklarga duch keladi.Onasidan erta yetim qolgani yetmaganidek, dadasi ham tuhmat bilan qamaladi.Turmushda ham ko‘nglida Kimsanga muhabbat bo‘lishi, unga unashtirilishiga qaramasdan, Ra‘noning xiyonati tufayli o‘zi tog‘a deb yurgan Shomurodga turmushga chiqadi.Robiya ana shunday jafokash ,sabr-matonatli, shu bilan birgalikda mehribon ona hamdir. Garchi Muzaffar o‘zining farzandi bo‘lmasa-da, uni o‘z farzandidek voyaga yetkazadi. Jamiyatga kerakli shaxs bo‘lib voyaga yetishi uchun harakat qiladi.

O‘tkir Hoshimov nafaqat “Ikki eshik orasi” romanida, balki “Dunyoning ishlari” qissasida ham ona obraziga alohida e’tibor qaratgan. “Dunyoning ishlari” qissasi dunyodagi barcha onalarimizni madh etuvchi madhiyadir, undagi har bir hikoyada bosh obraz sifatida mehribon onalarimizni ko‘rishimiz mumkin. Jumladan, “Gilam paypoq” hikoyasida farzandining omon qolishi uchun o‘zining sog‘ligidan ham voz kechgan ona obrazini ko‘rishimiz mumkin. Ona farzandim o‘lib qolmasin deb sarpoychan kelganini ham bilmaydi. Faqatgina Hoji buvi aytganidan so‘ng buni sezadi.Qissada ana shunday ona obrazi yaratilgan.

Qissadagi ”Qanoat”hikoyasida esa sabr-matonatli o‘zbek ayoli qiyofasi chizilgan.Uning o‘zi ham sabrli,qolaversa,sabrli bo‘lish kerakligini atrofdagilarga ham o‘rgatadi.

Asar yakunida keltirilgan ”Iltijo” hikoyasi esa barcha onalarga aytilgan dil izhoridir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, O‘tkir Hoshimov “Ikki eshik orasi”romanida urush davrida va undan keying yillarda qishloqlardagi insonlarning zahmatli mehnati aks etgan.Asarda farzandining yo‘liga bir umr ko‘z tikkan,erta vafot etgan insonlarning achchiq qismati,ochlik,yupunlik,alamli muhabbat voqealari tasvirlangan.

Foydalilanigan adabiyotlar:

- 1.O‘tkir Hoshimov ”Ikki eshik orasi”romani.”Ilm-ziyozakovat”nashriyoti 2019-yil.
- 2.O‘tkir Hoshimov ”Dunyoning ishlari”qissasi.”Sharq” 2005-yil.
- 3.10-sinf adabiyot darsligi.”Davr ilmiy nashriyoti ” 2017-yil.

1 O‘tkir Hoshimov ”Ikki eshik orasi” 84-sahifa
2 O‘tkir Hoshimov ”Ikki eshik orasi” 88-sahifa
3 O‘tkir Hoshimov ”Ikki eshik orasi” 436-sahifa
4 O‘tkir Hoshimov ”Ikki eshik orasi” 35-sahifa.



“BIBIXONIM QISSASI” VA “SOHIBQIRON NABIRASI”
QISSALARIDATEMURNING IKKINCHI XOTINI SAROY MULKI XONIM OBRAZI.

Niyazmetova Gulasal

UrDU Adabiyotshunoslik:

O’zbek tili va adabiyoti

2-kurs magistranti

ANNOTATSIYA: Maqolada iste’dodli shoir Xurshid Davronning “Bibixonim qissasi” va “Sohibqiron nabirasi” asaridagi Saroy Mulki Xonim (Bibixonim) obrazi tahlili, Bibixonimni aql-zakovati tengsiz ayolligi, asarlardagi badiiy mahorat va uslub nuqtai nazaridan yuksak asarlar ekanligi haqidagi ma’lumotlar ilmiy jihatdan dallilangan.

KALIT SO‘ZLAR: Tarix, me’mor, uch yosh yigit, maktub, xabarchi

Amir Temurning ikkinchi xotini Saroy Mulkixonim Chog’atoy xonlaridan Qozonxonning qizi bo’lgan. Birinchi Turmush o’rtog’ini 1369-yilda Amir Husayin o’ldirgandan so’ng uni Amir Temur o’z nikohiga oladi. Saroy Mulkixonim farzand ko’rmaydi. Amir Temurning farzandlari va nevaralarini tarbiyalashda muhim ro’l o’ynaydi. Temur o’z vorislariga katta ahamiyat bergen. Ota-onasi farzandlarning o’qishiga aralashmagan va bu davlat ishi hisoblangan. Tug’ulish vaqtida yaqinlashganda, homilador ayolni saroya olib borib, ularga juda ehtiyyotkorlik bilan qarashadi. Biroq bola tug’ulishi bilanoq onasidan darhol olib, yeguligi, ichishi, kiyim-kechagi va ta’lim-tarbiysi, bir so’z bilan aytganda, hamma narsaga ehtiyyotkorlik bilan qaragan.

“Sohibqiron nabirasi” qissasida Temur nabirasi Ulugbek, xususan Saroy Mulkixonimn uni asrashini xohlaydi. Chunki Ulug’bekning onasi Gavharshodbeginning takabbur fe'l-atvori bolada aks etishidan qo’rqadi. O’g’illarining tarbiyasi haqida bolaga shunday deydi:

“ – Mening farzandlarim erka bo’lmog’i kerak! – derdi Amir Temur. – Alarni erkalaydigan yer jang maydoni bo’lsin. Alg’umoq ila qilich alarming jonajon do’sti, jang-u jadal, yurushlar alarning ustozidur!”¹

Mana shu niyatda jahongir nabiralar tarbiyasini oqila malika zimasiga yuklatgan edi. Saroymulkixonim xonning qizi bo’lgani uchun yozlik davridan hukmfarmomonlik va bahodirlikdan saboq olgan.

“Bibixonim qissasi”da Temur unga nafaqat bola tarbiyasida, balki davlat ishlarida ham ishongan va uning fikrlarini ayrim xollarda qabul qilgan. Xurshid Davron Saroymulkixonim quyidagicha tanishtiradi:

“Xalq o’rtasida Bibixonim nomi bilan mashxur bo’lgan malikaning asl ismi Saroymulkixonomi, edi. Uning hayot yo’li haqida tarixiy manbalardan biri bo’lmish Abdurazzoq Samarcandiying “Matlayi sa’dayn va majmayi bahrayn” asarida yozilishicha, Saroymulkixonim chingiziylardan bo’lmish Chig’ator avlodiga mansub Qozonxonning qizi bo’lib, besh yoshida otasidan yetim qolgan. Mashhur rus olimi V.Bartold ham Qozon ismli xon qizi haqida ma’lumot beradi. Shu sababdan ham, ya’ni Chingizzon avlodidan bo’lgani uchun ham Saroymulkixonim Amir Temur saroyida katta izzat-ikromda bo’lgani shak-shubhasiz”²

Saroy Mukli Xonim tarbiyasida tarbiyalangan Shahrush Sulton va Xalil Sultonning ma’rifatparvar ayol bo’lishiga ta’sir qilganini ta’kidlagan muallif. Temur nazarida Saroy Muklixonim ahamiyati faqat chingiz xonlar avlodidan bo’lganidan uchun uchun emas, fozila va oqila ayol bo’lganidan juda hurmat qilgan. Jahongir boshqa xotinlaridan ko’ra ko’roq Saroymulkixonimni harbiy yurishlariga hamroh qilishi uning oqilaligidan dalolatdir. Yozuvchi Saroymulkixonimni Amir Temurning katta xotini sifatida tanilgani va Temur bilan birga turli davlat marosimlarida qatnashgan. Ya’ni Saroymulkixonimning obro-e’tibori mamlakat chegarasidan tashqariga chiqanligini ham aytib o’tadi:

“Temuriylar davrida ayollar davlat boshqaruvida muhim o’rin tutgan ko’rinadi. Temurning xotinlari va uning saroyidagi ayollarining ahvoli, umuman olganda, islam qonunlariga emas, balki eski turk va mo’g’ul odatlariga mos bo’lgan. Aniqlanishicha, ayollar temuriylar davrida Samarqandga kelgan Ispaniya elchisi Klavixo sharafiga berilgan ziyofatlarda yuzlarini

1 Xurshid Davron “Sohibqiron nabirasi”. Toshkent. “Kamalak”. 1991

2 Xurshid Davron “Sohibqiron nabirasi”. Toshkent. “Kamalak”. 1991



berkitmasdan qatnashganlar. Temurning xotinlaridan Saroy Mulkxonim, kelinlaridan Honzoda ham elchiga ziyofat beradilar, bu ziyofatda boshqa honimlar ham qatnashdilar. Temurning rafiqasi Saroy Mulkixon va Tuman og'a, Xalil Sultonning rafiqasi Shod Mulk, Shohruxning rafiqasi Gavharshodbegim, Husayib Bayqaroning onasi Feruza Begim va uning rafiqasi Hadicha Begimlar davlat boshqaruvida o'z so'zlarida ega edilar”.¹

Oliyjanob, aqilli va mardayol sifatida tanishtirilgan Saroy Mulkixonim haqidagi turli rivoyatlarda bu xususiyatlar doimo ta'kidlangan. Aytish mumkinki, “Bibixonim qissasi” ham shu maqsadda yozilgan. Bu yerda bayon qilingan rivoyatlarga ko'ra, Temur safarga chiqanida Saroy Mulki Xonim saltanatning boshlig'li bo'lgan. Kechalari yuziga niqob taqib xalqni ahvolini kuzatgan. Shunday kechalarining birida uch yoz yigitning nutqiga guvoh bo'lib qoladi. Ertasi kuni ularni saroya chaqiradi. Har bir yigitni orzusini amalga oshiradi. Birinchi yigitning orzusi saroyning barcha taomlarida ta'tib ko'rish bo'lgan, uning niyatini amalga oshirish uchun yigitni oshpazning qiziga uylantiradi. Ikkinchisi yigitning orzusi Saroy Mulkixonimdek go'zal ayolni o'ziga mahbubu bo'lishi bo'lgan, buni iloji yo'qligini, biroq o'z kanizlari ichidagi eng go'zal qizga uylantiradi. Uchinchi yigitni orzusi Temurdek hukmdor bo'lish. Tezkorligi bilan tanilgan Saroy Mulki Xonim bu yigitga Temurni hukmdor qiladigan narsa uning qilicha va qalbidagi olov ekanligini, unga qilichini berishi mumkunligini, lekin yuragida shunday olov bo'lishi kerakligini aytadi. Bu voqeа ekspeditsiyada yurgan Temurning qulog'iga yetib boradi. Saroy Mulki Xonimning aqkidan yana bir bor hayratga tushadi. O'sha mish-mishlardan biri quyidagicha:

“Amir Temuro'zi bosib olgan mamlakatda tartibni saqlay olmaydi. U xalqni o'ziga bo'ysundirishni qiyin qiyin deb biladi. Bu masalada vazirlardan yordam so'raydi, ular ham chora topa olmaydi. Nihoyat, aql-zakofatiga qoyil qolgan rafiqasi Bibixonimdan yordam so'rashga qaror qilib xat yubaoradi. Xatni Samarqandga olib kelganxabarchi dam olish uchun to'xtagach, xatda nima yozilgan ekan deb, xayron bo'ladi. Amir Temur Bibixonimni ko'pdan beri ko'rmagani uchun g'azal yozgan bo'lsa kerak, deb o'ylaydi. Xatni ochib qarasa, “Men o'zim bosib olgan yurtlarimdagи odamlarni o'zimga bo'ysundira olmayabman, bu haqda menga nima deya olasiz” deb yozilgan. Xabarchi Xatni Bibixonimga yetkazadi. Bibixonim xatni xabarchi ochganini tushunadi. Edi nima yozsa o'qiladi, deb oylaydi, xabarni yozma ravishda emas, og'zaki ravishda yetkazadi. Lekin shunday xabar berishi kerakki, buni faqat Amir Temur tusgunishi kerak. U xizmatkorlarni chaqirib, bir hududdagi qari daraxtlarni yiqitishni buyuradi. Ertasi kuni o'sha joyga yangi ko'chat ekiladi. U xabarchida borib, bu yerda ko'rganlarni Amir Temurga aytib berishini so'raydi. Temur yoniga kelgan xabarchi Bibixonim maktub jo'natmaganini, ko'rganlarini aytib berishini xohlaganini aytadi. Amir Temur elchining gaplini eshitib hammasini tushunib yetadi. Bibixonimning nega bunday yo'l tutganini ham tushunadi va rafiqasining aql-zakovatidan shu qadar hayratlanadiki, elchini jazolashni ham unitadi. Temur keksalarni davlat ishidan chetlatib yoshlarni qo'yadi, tez orada hamma unga itoat qila boshlaydi”.²

Saroy Mulki Xonim Temurga sadoqati bilan ham tanilgan. U haqda aytilgan eng mashhur mish-mishlarga ko'ra Amir Temur Hindiston safariga ketganida, uning rafiqasi Bibixonim Samarqandning eng yaxshi muhandis va me'morlarini yig'ib, Amir Temur shon-shuxratiga munosib madrasa qurdurmoqchi bo'ladi. Temur safardan qaytgunicha qurulish tugashini buyuradi. Me'morlardan biri Bibixonimni sevib qoladi va sekin – asta ishlay boshlaydi. Madrasani vaqtida bitishini istasa, Bibixonim o'psin deydi. O'zining aql-zakovati bilan mashxur Bibixonim me'morning bu iltimosini eshtib, qattiq jahli chiqadi. Oshpazga qirqda tuxum pishirtirib, qirq xil ranga bo'yashini buyuradi. Me'mor hammasini bir o'tirishda yeydi. Bibixonim me'mordan qaysi mazali ekanligini so'raydi. Me'mor esa ularning barchasini ta'mi bir xilligini aytadi. Bibixonim “Tuxumning tashqi tomoni har xil, ichki qismi bir xil bo'lganidek, ayollar ham shunday. Mendan bo'sa so'rashga uyalmaysizmi”, -deydi. Amir Temur bu voqeani eshitgach, o'zini tirik saqlamasligini taxmin qilgan me'morbir kuni ertalab madrasa tepasidan o'zini tashlab, qush bo'lib uchib ketdi. Bu rivoyatning turli talqinlar bor. Bir mish-mishlarga ko'ra, Bibixonim me'morga ro'molining ustidan o'pishga ruxsat bergen, Temur yurishdan qaytgach, yosh me'mormasjid minoraidan sakrab tushgan, lekin yiqilmagan va qush bo'lib uchib ketgani aytildi.

Xurshi Davron o'zi ko'rgan Samarqandni ta'kidlaydi. Bibixonim jasadi Samarqandga olib

1 Xurshid Davron “Sohibqiron nabirasi”. Toshkent. “Kamalak”. 1991

2 Xurshid Davron.”Samaqand xayoli”kitobi. “Bibixonim qissasi yohud tugamagan doston” qissasi. Toshkent. “Kamalak”. 1991.



kelgan qismida bugungi tarix unutikganidan, Samarqandga kerakli baho berilmayotganidan noliydi. Bibixonimning jasadini Samarqandga olib kelish hikoyasining bosh qahramoni Yusupov tushida Bibixonimni ko’radi. Bibixonim uni haqiqiy Samarqandga olib borishini aytadi. Uning aytishicha, Samarqand o’tmishni unutadiganlar bilan to’la. Tarix, vatan, zamin va ayol “ona” sifatida ijodkorning alohida ta’kidlagan va qadrlash kerak bo’lgan tushunchalardir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Quronov D, Mamajonov Z, Sheraliyeva M Adabiyotshunoslik lug’ati. –T.: “Akademnashr”, 2010. B.95
2. O‘zbek adiblari S.Mirvaliyev, R.Shokirova Toshkent, G’afur G’ulom nomidagi adabiyot va san’at nashriyoti, 2016
3. “Samarqand xayoli”. X.Davron. Toshkent, "Sharq" nashriyoti, 1995.
4. Bibixonim qissasi yohud tugamagan doston”. X. Davron. Toshkent, "Sharq" nashriyotmatbakonsernining bosh tahririyati, 1990.



ADABIYOT DARSLARIDA MODULLI TA'LIM TEXNOLOGIYASINI QO'LLASH

Asqarova Oydin Qahramon qizi

Olimova Kamola Komil qizi

Rasulova Maftuna Qayimovna

Buxoro viloyati Vobkent tumani

3-maktab ona tili va adabiyot o'qituvchilarini

Annotatsiya: Ushbu maqolada bugungi kunda adabiyot darslarini samarali tashkil etishda modulli ta'lism texnologiyasini qo'llash usullari haqida so'z yuritilgan.

Kalit so'zlar: adabiyot, modul, modulli ta'lism, dars, “Kichkina shahzoda”, usul.

Komil inson tarbiyalashda maktab ta'limalda yetakchi fan hisoblangan ona tili va adabiyot fanining o'rni beqiyosdir. Ona tili va adabiyot ta'limalining asosiy talablariga ko'ra, o'quvchi mavzu bo'yicha belgilangan bilim, malaka va ko'nikmalarni egallash uchun darslikdagi mashq va topshiriqlarni mustaqil, ijodiy fikr lash orqali bajarish kerak. Shuningdek, berilgan topshiriqlarni bajarishda kuzatish, umumiylikni topish, farqlarni aniqlash, qiyoslash, tasniflash, xulosa chiqarish, amaliyotda qo'llash kabi amallarni bajarish kerak.

Modul - lotincha “modulus” so'zidan olingan bo'lib qism, bo'lak, blok ma'nolarini anglatadi. Modulli ta'lism pedagogik texnologiyani tashkil etuvchi tarkibiy bo'laklarni ifodalaydi. Bu modulli ta'lism dars jarayonini tashkil etishdagi eng kichik ish turlaridan hamda ularning turli miqdordagi to'plamlaridan iborat bo'ladi. Bunda eng kichik faoliyat turi eng kichik modul sanalib, boshqalari qancha modulni qamrab olishiga qarab o'ziga mos darajadagi modullar sanaladi.

Adabiyot o'qitish sohasida modulli ta'lism texnologiyasi deyilganda, adabiy ta'lism jarayonini modullar asosida loyihalashtirish nazarda tutildi. Ajratilgan har bir modul bo'yicha uning o'ziga xos bo'lgan faoliyat mazmuni va ta'sir doirasini mavjud bo'ladi. Adabiy ta'lism jarayonida modulli ta'lism texnologiyasidan foydalanilganda o'rganiladigan mavzu mantiqiy tugallangan bo'laklarga, ya'ni modullarga ajratiladi. Har bir bo'lak o'quvchilar mustaqil ishlashlari uchun maxsus topshiriqlarga aylantiriladi. Modulli ta'lism texnologiyasida o'quvchilar tomonidan amalga oshirilayotgan har qanday faoliyatga o'quv elementi deb qaratadi. Ta'kidlaganimizdek, mavzni o'tish jarayonida o'qituvchi tomonida ushbu mavzu qismlarga bo'linadi va o'quvchilarga mavzu yuzasidan tushunchalar berilgach, o'zlarining erkin fikr mulohazalarini bildirishlariga imkon beriladi. Bu albatta, darsning yanada qiziqarli hamda samarali bo'lishini ta'minlaydi.

Adabiy ta'lism jarayonida modulli ta'lism texnologiyasidan foydalanish uchun avval quyidagi ishlardan amalga oshiriladi:

- mazkur yo'nalishning xususiyatlarini ochib beradigan metodik majmular yaratish; - ta'lism jarayonini tashkil etish uchun uni zaruriy didaktik ashyolar bilan ta'minlash; - ta'lism amaliyotini nazariy-metodik va amaliy-tashkiliy jihatdan to'g'ri uyuştirish

Adabiyot o'qitishning modulli texnologiyasi - ta'limalning belgilangan tamoyillariga muvofiq tarzda rejalashtiriladi va amalga oshiriladi. Bunda motivatsiya (o'quvchining bilishga bo'lgan ichki ehtiyoji), modullilik, muommalilik, hamkorlikka asoslanish, subyekt-subyekt munosabati, didaktik o'yinlar, audio-vizual va h.k. tamoyillar nazarda tutildi.

Asar ustida ishlashda modulli ta'lism texnologiyasidan foydalanilganda quyidagi izchilllikka amal qilinadi:

- modulli ta'lism uchun ziyor shart-sharoitni yaratish;
- modulning maqsadi va mazmunini belgilash;
- nazariy va amaliy ma'lumotlami ajratish;
- ta'lism amaliyotini rejalashtirish;
- o'quv hamda didaktik materiallar, texnik vositalami tayyorlash;
- amaliy mashg'ulotlami tashkil etish;

Adabiyot darslarida modulli ta'lism texnologiyasini tadbiq etishda, avvalo, o'quvchilarni har tomonlama mazkur darsga tayyorlash lozim. Bundan tashqari, dars samarasini oshirish uchun mazkur darsga muvofiq keladigan o'quv materiallarini ham dars jarayonida tadbiq etish zarur. Modulli texnologiya asosida tashkil etilgan darsdan namuna keltiradigan bo'lsak, A.Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asari ustida ishlash darsini tavsiya etish mumkin. Umumta'lism maktablari 5-sinfi dasturida Antuan de Sent-Ekzyuperining “Kichkina shahzoda” asarini o'rganish uchun



to‘rt soat ajratilgan. Asarni o‘rganishga yo‘naltiruvchi talqin quyidagicha: «Ertak-qissada bolalar olamining mahorat bilan tasvir etilishi. Unda abadiyat va foniylit, hayot, muhabbat va o‘lim muammosining o‘ziga xos tarzda tasvir etilishi. Kichkina shahzoda obrazi. Ertakdagi boshqa obrazlar va ular o‘rtasidagi munosabat. Ertakda bolalar ruhiyatiga xos xususiyatlarning yorqin ifodalanganligi. Ertakning tarbiyaviy ahamiyati.

Badiiy asarlarni bo‘laklarga bo‘lib o‘rganishda, ya’ni darsni modullar asosida tashkil etishda, istalgan joydan, istalgan narsa olinaverilmaydi. Buning o‘ziga xos pedagogik, psixologik sabablari bor. O‘qituvchi “Kichkina shahzoda”ni uning boblariga tayanib, to‘rt soatga rejalashtirib olishi va har darsda o‘qilgan bo‘laklardagi yetakchi fikrlarni modullashtirib olishi maqsadga muvofiqdir. Ayni zamonda, bo‘lajak o‘qituvchilarining “Kichkina shahzoda”ni o‘zlari modullashtirishlari, ya’ni ajratib ko‘rsatilgan o‘rinlardan kompyuter yordamida maxsus modullar yaratishlari o‘z amaliy faoliyatlarini tasavvur qilishlariga imkon yaratishi mumkin.

Yuqoridaqilardan kelib chiqib shuni aytish mumkinki, qo‘llanilgan usullar o‘quvchilarining intellektual faollik, qiziqishlari hamda moyilliklaridan kelib chiqqan holda bilimlarning ortishi va ko‘nikmalarining malakaga aylana borishini ta’minlaydi.

Ta’lim sifat samaradorligini oshirishga xizmat qiladi. Mamlakatimizda ta’lim tarbiyani hozirgi zamon talablari darajasida olib borishda mavjud barcha imkoniyatlar va vositalardan samarali foydalanganimizdagina ma’naviyati yuksak yoshlarni tarbiyalashga erishamiz.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Q. Husanboyeva, R. Niyozmetova. Adabiyot o‘qitish metodikasi.
2. Umumiyo‘rta ta’lim maktablarining 5 - 9-sinfi uchun adabiyotdan o‘quv dasturi.
3. Ishmuhamedov R.JYuldashev M.A. Ta’lim va tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar.



XUDOYBERDI TO‘XTABOYEV IJODINI O‘RGANISH

Atojonova Sadokat Xaitbayevna

Xorazm viloyati Urganch shahridagi

23-maktabning boshlang‘ich sinf o‘qituvchisi.

Annotatsiya: Mazkur maqolada bolalar adabiyotining zabardast vakili, romannafis yozuvchi Xudayberdi To‘xtaboyev hayoti ijodi haqida so‘z boradi.

Kalit so‘zlar: Fel’etonchi, “Hadik”, “Tilxat”, “Ona”, “Xarakteristika”, “Barvaqt aytilgan azon”, “Domlaning uyiga o‘t ketdi”, “Maxsus topshiriq”, “Jonginam, shartningni ayt”.

Xudoyberdi To‘xtaboyev katta-yu, kichik bolalarning sevimli adibi. U hozirgi zamon o‘zbek bolalar adabiyotida sarguzasht va fantastika janrlarining rivojlanishiga katta hissa qo‘shib kelayotgan talantli adib sifatida kitobxoniga ma’lum va mashhurdir.

Xudoyberdi To‘xtaboyev 1932-yilning 17-dekabrida Farg‘ona viloyatining O‘zbekiston tumaniga qarashli Kattatagob qishlog‘ida dehqon oilasida dunyoga keldi. Boshqa bolalar qatori Xudoyberdi ham poda boqdi, yer chopdi, paxta terdi, xullas, qishloqda bo‘ladigan hamma mehnatlarda hol-qudrat ishtirok etdi., hayot nimadan iborat ekanligini yoshligidanoq bila boshladи.

Bo‘lajak adib ikkinchi jahon urushi yillarda o‘qishni yig‘ishtirib dalada ketmon chopdi, hisobchilik qildi, mashaqqatli mehnat bilan suyagi qotdi.

Qo‘qon pedagogika bilim yurtini muvaffaqiyatli tamomlagan Xudoyberdi To‘xtaboyev ona qishlog‘ida muallimlik qilar ekan, unda ilmgaga cheksiz ishtiyoq uyg‘onadi. Shuning uchun ham u o‘qituvchilikni tashlab, Toshkent davlat dorilfununiga o‘qishga kirdi. Bu yerda Alisher Novoiv, Bobur, G‘.o‘ulom, Oybek, O‘.Olimjon, A.Qahhor asarlarini sevib o‘qidi, o‘rgandi.

Universitetni tugatib, Bog‘dod tumanida o‘qituvchilik qildi. Ilmiy bo‘lim mudiri, direktorlik lavozimlarida ishlab, yoshlarni ilm-fan nurlaridan bahramand etish ishlarida faoliyat ko‘rsatdi. She’riy mashqlari vaqtli matbuot sahifalarida e’lon qilina boshladi. Bu esa bo‘lajak adibni markazga – Toshkentga ijodiy ish bilan jiddiy shug‘ullanishga chorlar edi. Shunday ham bo‘ldi. U 1958-yilda Toshkentga ko‘chib keldi. “Toshkent haqiqati” gazetasiga ishga kirdi.

“Hadik”, “Tilxat”, “Ona”, “Xarakteristika”, “Barvaqt aytilgan azon”, “Domlaning uyiga o‘t ketdi”, “Maxsus topshiriq”, “Jonginam, shartningni ayt” kabi kattalar uchun qissa va hikoyalar yozgan Xudoyberdi To‘xtaboyev bolalar uchun ham hikoyalar yaratishga boshladi.

Inson olamga kelibdiki, ona allasi aytilibdiki bolaga rostgo‘y bo‘lish, yolg‘on gapirmaslik masalasi qulog‘iga quyiladi. Chunki kim yolg‘onchi bo‘lsa, o‘zgalarga riyokorlik ko‘rsatsa, bir kun emas, bir kuni siri fosh bo‘ladi, yolg‘onchiligi oshkor bo‘lgach, izza bo‘lib odamlar yuziga tik boqa olmay qoladi. Oddiy bir misol: adibning “Shoshqaloq” hikoyasini olib ko‘raylik.

Shavkat juda shoshqaloq bola, doimo shoshilganidan gap orasida yolg‘on-yashiq gapni ham qistirib yuboraveradi. Buni uning qo‘shni ayol- Komila xolaga yolg‘on gapirib qo‘yib, mana bunday izza bo‘lib qolishi misolida ham bilib olamiz.

“Kichkina rais” hikoyasining qahramoni kichkintoy o‘quvchi bola. Lekin Foziljonning xatti-harakati, intilishi, paxta dalalarini sergaklik bilan kuzatishi, fikr yuritishi raislarga xos.

Xudoyberdi To‘xtaboyevda yozuvchilikka ishtiyoq uyg‘otgan, qobiliyatining shakllanishida muhim rol o‘ynagan, asarlariga qaytarilmas rang va jilo bergen narsa hayot, vaqtli matbuot, redaktsiyadagi qaynoq ijodiy muhit va qunt, chidam bilan o‘qish, o‘rganish, o‘z ustida ishlash bo‘ladi.

Xudoyberdi To‘xtaboyev uzoq yillar fel’etonchi bo‘lib ishlab, kishilarning yurak dardini, hasratini qunt bilan o‘rgandi. Bunday shikoyatlarga sabab bo‘layotgan shaxslarning xatti-harakatlarini mufassal bilib olishga intildi. Davrdan orqada qolgan, sarqit deb atalgan illatlar botqog‘iga botgan, molu dunyoga hirs qo‘ygan shaxslar haqida talay fel’etonlar yozdi. “Sariq devni minib”, “Sariq devning o‘limi” nomli asarlari ana shu faktlarni umumlashtirish asosida yuzaga keldi, desak to‘g‘ri bo‘ladi.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. O‘zbek bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2002.
2. Jumaboyev M Bolalar adabiyoti. –T.: O‘qituvchi, 2011.



PO’LAT MO’MIN – BOLALAR QALBING BILIMDONI

Hamrayeva Nargiza Abdimannonovna,
Navoiy viloyati, Navoiy shahar
17-maktab boshlang’ich sinf o’qituvchisi
Telefon:+998 91 441 89 14

Annotatsiya: Maqlada Po’lat Mo’minning bolalar uchun yozgan asarlari ularni mehnatsevar, ilmga intiluvchan, o’zi tug’ilib o’sgan ona makonini sevish, ardoqlash va vataniga fidoiy insonlar bo’lib yetishishiga bag`ishlanganligi haqida fikr-mulohazalar bildirilgan.

Kalit so‘zlar: Adabiyot xazinasi, she’riy to‘plam, ertak, poema, pyesa, doston, do’stlik, mактабга muhabbat, birlik, mehnatdan zavqlanish, pokiza hayot.

O’zbekiston xalq yozuvchisi Po’lat Mo’minning adabiyot ixlosmandlariga, xususan, yosh avlodga shoир, dramaturg sifatida tanish va yaqin. U o’z yosh kitobxonlarining o’y-fikrlarini, orzu-umidlarini yaqindan biladi. Ularning dillaridagini tillarga chiqqangan shoирning tinimsiz ijodiy mehnati tufayli “Hunar- dan unar“, “To‘g’ri o’sgan gul bo‘lar“, “Aql qayerda bo‘lar?“, “O’rinbosarlar“, “Oltin nay“, “Bir yarim Karim“, “Endi adashmaydi“, “Barcha bola do’st bo‘lsa“, “Rahmatga rahmat“, “Gazpolvon ertak aytar“, “Chang yutar botir“, “Do’sting qancha ko‘p bo‘lsa“, “Oftob va odob“, “Yaxshilarga o’xshasam“, “Bu juda soz“, “Eson va omon“, “Oltmish olti oltin qo‘l“, “Ustozlar izidan“, “Bolalarning baxti kulgan“, “Bir yuz bir oltin qo‘l“ s he’riy to‘plamlari: “Chanoqvoy bilan Qovoq- voy“, “Bahodirning botirligi“, “Suqatoy-konfetvoy“, “Oq fil yo‘qoldi“, “Ona bolam deydi“ kabi ertaklari, pyesalari yuzaga kelgan. Ushbu kitoblarga kirgan she’r va qo’shiqlari, doston va ertaklari bolalar adabiyoti xazinasiga munosib hissa bo’lib qo’shildi, uni boyitdi. Bu asarlardan bir qanchasi jahon xalqlari tillariga tarjima qilinganki, bu faqat shoирning emas, balki o’zbek bolalar adabiyotining ham yutug‘i, obro’si hisoblanadi

Po’lat Mo’min ijodining mohiyati bolalarga hayot yo’lini belgilab berishga, ularning o’zi tug’ilib o’sgan ona makonini sevishga, ardoqlashga va yurtiga fidoiy insonlar bo’lib yetishishiga bag`ishlanadi. “Vatanjonim, vatanim” she’rida aynan shunday g’oyalalar aks ettirilgan. Po’lat Mo’min dostonchi shoир sifatida ham juda qadrlidir. Uning “Oltin nokli bog““, “Ko‘cha — ko‘pchilik uchun“, “Eh, rosa shirin ekan!“, “Xolning jiyrон velosipedi“, “Ko‘ngil istar yaxshilik“ nomli poemalari kichkintoy- larning sevimli asarlariga aylanib ketgan. Shoирning dostonlarida bolalar o’rtasidagi do’stlik, birodarlik, o’qituvchi va jonajon mактабга muhabbat, birlik, baynalmilallik kabi g’oyalar ilgari surilgan.

Bolalar shoирining “Tuganmas kon“, “O’qituvchi baho qo‘yganda“, “Yuqumli ikkilar“, “Ko‘chalarni to’ldirib“, “Sizga nima bo‘ldi, o‘g’il bolalar?“, “Bilsa bo‘lar ekan-ku!“, “Sentabrdan kim sevinar?“ kabi she’rlari a’lo va yaxshi o’qish uchun intilayotgan, harakat qilayotgan bolalar to‘g’risida yozilgandir.

Shoир she’rlarida kichkintoylarning jismoniy ishga intilishlari ham yaxshi oolib beriladi. Uning “Oftob chiqdi olamga“, “Yer chopildi - javob topildi“ she’rlari fikrimizning dalilidir. “Oftob chiqdi olamga“ she’rida u xalq og‘zaki ijodidan unumli foydalangan. She’rda bolalarning harakati, urinishi, kattalar ishiga ko‘maklashishi nihoyatda ta’sirli va shirali ifodalangan. Po’lat Mo’min haqiqatan ham oftob - bu olam-olam quvonch, shodlik, mehnat, yashash, yasharish ramzi ekanligini kichkintoy bolalar timsoli orqali yanada yorqinroq, ta’sirliroq aks ettiradi:

Oftob chiqdi olamga,
Chopib bordim dalamga,
Dadam ko‘chat ekardi,
Salom berdim dadamga.

Po’lat Mo’minning “Yer chopildi - javob topildi“ she’ida mehnatdan zavqlanish tuyg‘usi yorqin ifodalangan. Asar qahramoni dastlab uyga berilgan topshiriq -misollarni ishlay olmaydi. Shunda u jismoniy mehnat qilishga kirishadi -yer chopadi, terlab-pishadi. Natijada ko‘ngli yorishadi, fikri oydinlashadi. Uyga berilgan misollarni ham yechadi, yerni ham chopadi. Bu holat shunday ifodalananadi:

Barcha savolga
Javob topildi.
Shu bahonada



Yer ham chopildi.

Po'lat Mo'minning "Besh baho qo'shig'i", "Xursandmisiz?", "Xursandmiz!", "Sentabrim", "Uch baho - puch baho" singari qo'shiqlari o'qish, ilmli bo'lish mavzusiga bag'ishlangan. O'z ustida ko'p ishslash, kitob o'qish, dars qoldirmaslik "a'lo" o'qishning mustahkam noydevori ekanligini shoir "Uch baho –puch baho" qo'shig'ida yoritib beradi. Onalarni, keksalarni hurmat qilish,e'zozlash haqidagi "Achrom-achom buvijon", "Mehribonim onajon!", o'zaro hurmat, do'stlikni joyiga qo'yish "Bir jahon bolalarmiz", har bir shodiyona, bayramlarni zo'r tayyorgarlik bilan kutib olish, chevarlik kasbini bolalikdan bilib boorish haqida "Ko'ylagim" va boshqa mavzularga bag'ishlab shoir o'nlab qo'shiqlar yaratganki, bunday qo'shiq- lar bolalarning jon-u dilidir.

Boshlang'ich sinf ona tili va o'qish savodxonligi darsliklarida sevimli yozuvchining 1-sinfda "Kitob", "Non olib keldim", 2-sinfda "Ibn Sino ularshar davo", 3-sinfda "Yer chopildi - javob topildi" she'rlari o'rin olgan. Sinfdan tashqari o'qish darslarida uning asarlari o'rganiladi.

Bolalarning suyukli shoiri Po'lat Mo'min axloq va odob kuychisi hisoblanadi. Bu masala ko'proq uning "Birovlar", "Bir odamning afsusi", "Behzodni bilasizmi?", "So'zi shunaqa - o'zi shunaqa", "Ulg'aydimi aqlingiz?", "Qo'ling oltin - yo'ling oltin", "Birinchi bo'l, birinchi!" kabi she'r va qo'shiqlarida ochib beriladi.

Po'lat Mo'minning butun e'tibori, ijodining mohiyat bolalarga pokiza hayot yo'lini ko'rsatib berishdan iborat. Bolalar uning asarlarini o'qib-o'rganadilar va zehnlarini charxlaydilar.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Jumaboyev M. Bolalar adabiyoti (Darslik-majmua). T. O'qituvchi.2008-y.
2. Ona tili va o'qish savodxonligi o'quv dasturi. RTM. Toshkent. . 2022-yil.
3. Ona tili va o'qish savodxonligi. (darslik 3-sinf uchun) 2022-yil.
4. www. Ziyonet. uz. va boshqa internet manbalari.



ERKIN VOHIDOV SHE’RLARINING MAZMUN - MOHIYATI

Ochilova Mayram Hamroyevna

Buxoro viloyati Vobkent tumani
26-umumiyyatiga ta’lim maktabning
ona tili va adabiyot fani o’qituvchisi

Annotatsiya. Ushbu maqolada taniqli o’zbek shoiri, dramaturgi, adabiy tarjimoni va davlat arbobi Erkin Vohidov she’rlarining mazmun-mohiyati haqida mulohaza yuritilgan.

Kalit so’zlar: Erkin Vohidov, badiiy adabiyot, she’r, so’z san’ati, iste’dod, g’oya, qasida, vatan, asar, fikr, mazmun.

Badiiy adabiyot inson qalbini go’zallashtiruvchi, mushohadaga chorlovchi so’z san’atidir. Badiiy asarda ilgari surilgan g’oya, qalamga olingan fikr va unga mos shakl asar qiymatini oshiradi. Shunday ekan ijodkordan yuksak zehn va istedod talab qilinadi. Ana shunday yuksak istedod sohibi, serqirra ijodkorlardan biri Erkin Vohidovdir. Uning asarlari soddaligi, tushunarligi hamda kitobxonga qalban yaqinligi bilan ajralib turadi. “Erkin Vohidov va uning ijodi - yirik mavzu. Bu asl shoiri va asl she’r haqida gapirish demak. Asl she’r noyob gavhar, ko’ngil mo’jizasi, ilohiy hodisa. Hammaga ham, hamisha ham nasib etavermaydi. E. Vohidov ana shu nasibaga muyassar bo’lgan ijodkor. Nafis so’z, go’zal xayol, husni-dil sohibi.” Yuqoridagi bildirilgan fikrlardan ko’rinadiki, o’zbek xalqining suyukli farzandi Erkin Vohidov va uning ijodi- tugamaydigan xazina. She’rlarida hayot haqiqati bilan birga jamiyatdagi ko’ngilsiz hodisalar, ayol go’zalligi-yu, oshiqning mashaqqatlari to’g’risida fikr yuritadi.

“To tirikdirki tabiat,

To quyosh sochgayki nur.

Uch egiz bordir tushuncha ,

Uch bu so’z yondosh bo’lur:

Mohiru mehru mahorat,

Olimu ilmu amal,

Oshiqu ishqu mashaqqat

Shoiru she’ru shuur, - “

Shoirning ushbu she’ri kitobxonni vazn soddaligi, so’zlarning ohangdorligi bilan jalgan etadi. Badiiy tafakkurning mahsuli bo’lgan bu she’rda biri birini taqazo

qiladigan so’zlarga foydalilanilgan. Va ular bir birini izohlaydi, to’ldiradi. Misol uchun, 2- bandning birinchi misrasida keltirilgan, mohir, mehr, mahorat so’zlari bir o’zakdosh so’zlar hisoblanib, inson o’z ishiga mehr bilan yondoshmasa mahoratli bo’lolmaydi singari fikrni berishda qo’llanilgan. Keyingi misradagi olim, ilm, amal so’zlari olim odam ilmini boshqalarga ham ulashish amalini bajarishlari zarur kabi g’oyani ifodalagan. Ijodkorning yutug’i shundaki, 3-misrada hayotdagi, insonlar orasidagi azaliv tuyg’u hisoblangan ishqni ham e’tibordan chetda qoldirmaydi. Mumtoz adabiyot namoyondalarining ijodida an’ana tusiga kirgan oshiq va uning ahvoli xususida to’xtalib, oshiq inson ishqning kuyida mashaqqat chekishini qalamga olgan. She’rning so’ngida shoirlarga da’vatni ham ko’rishimiz mumkin. Ijodkor o’z ijod namunasini qalban his etishi, shuuriga singdirishi kabi tushunchani tasvirlagan. Ushbu tahlildan ko’rinadiki, shoir hayotdagi har bir hodisa boshqa bir hodisaga bog’liq degan g’oyani ilgari suradi.

Uning ijod namunalarida Vatanga muhabbat, sadoqat, insonparvarlik, o’tmishni xotirlash-u, bugungi kun qadriga yetish kabi da’vatni ham his etamiz.

“Garchi shunch mag’rur tursa ham,

Piyololaga egilar choynak.

Shunday ekan, manmanlik nechun,

Kibru havo nimaga kerak.

Kamtarin bo’l hatto bir qadam,

O’tma g’urur ostonasidan.

Piyolani inson shuning-chun

O’par doim peshonasidan.”, - deya kitobxonga kamtarlik va mag’rurlik kabi hislatlarni yaxshi hamda yomon ekanligini oddiy, hayotda uchraydigan misollar orqali tushuntirib beradi. Ushbu she’rda kundalik hayotimizda ishlataqdigan choynak kibrli, mag’rur illatlarini o’zlariga odat qilgan



insonlarning majoziy obrazi bo'lib, bu illat hech qachon obro topmasligi haqidagi g'oya hamda payola kabi samimiy, kamtar insonlar doimo olqishga erishishi singari da'vat o'z ifodasini topgan. Yuqoridagi she'rda piyola kamtarligi uchun yuksak sharafga sazavor bo'lganligi qalamga olingan. Va o'quvchilarga ham kamtar ham samimiy bo'lish kerakligi uqtirilgan.

E.Vohidov ijodida vatanni madhetish g'oyasi ustuvor ahamiyat kasbetadi. “O'zbegim” qasidasida Vatanni ulug'lash bilan bir qatorda, vatan uchun kurashgan, jasorat ko'rsatgan qahramonlarni ham tarannum etadi. “O'zbegim” qasidasida badiiy g'oyani uyg'unlashtirish maqsadida adabiyotdagi badiiy san'atlardan biri talmeh san'atidan foydalanilgan. Ijodkorning maqsadi faqatgina Vatanni ulug'lash bo'lmay, Vatan uchun sharaflı xizmat qilgan bobokalonlarimiz, shuningdek, o'zbek xalqining o'tmishi, tarixini qalamga olish va uni tasvirlash bo'lgan. Zaxmatkash o'zbek xalqi obrazini ushbu qasidada aks ettirib, o'zbekning qadr – qimmatini yanada ko'klarga ko'targan:

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak.
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston o'zbegim.”

Xulosa qilib aytganda, Erkin Vohidov ijodi jozibadorligi, mavzu ko'lami hamda obrazlarining xilma xilligi bilan kitobxonni o'ziga jalb qiladi. She'rlarida jonsiz narsalarga ham poetik o'xshatish keltirib, insonlar qalbini yaxshilikka, insoniylikka, samimilligu sofdillikka boshlaydi. Rus shoiri Robert Rojdestvenskiy keltirganidek: “...bular juda yaxshi va aniq she'rlar. Shuningdek ularda dono xotirjamlik va kenglik mavjud. Yana og'riq ham bor. Haqiqiy inson og'rig'i.” Erkin Vohidov she'rlaridagi o'sha og'riq insonning o'ziga nazar solishi va o'zini tuzatishidir.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Badiiy tahlil asoslari. Qozoqboy Yo'ldosh, Muhayyo Yo'ldosh. Kamalak.
2. D.Quronov va boshqalar. Adabiyotshunoslik lug'ati. Akademnashr.T.;2010.
3. To quyosh sochgayki nur. T., O'zbekiston. 2016.
4. E.Vohidov. Tanlangan asarlar.T.,Sharq. 2016.
5. Sh.Jalilova. conferencesuz materiallari.



ABDULLA QAHHORNING OBRAZ YARATISH MAHORATI

Galdiyeva Gulnaza,

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
24-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

G'afforova Oltiboy,

Xorazm viloyati Qo'shko'pir tumani
24-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Abdulla Qahhorning serqirra ijodiga xos ko'pgina fazilatlarni ochib berishga, obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: mustaqillik g'oyalari, serqirra ijod, obraz yaratish, Vatan mustaqilligi, qissa va romanlar, mafkuraviy kurash.

Abdulla Qahhor XX asr o'zbek adabiyoti xazinasiga o'zining realistik hikoya, qissa, roman, dramatik asarlari va badiiy tarjimalari bilan munosib hissa qo'shgan siymlardan biridir. Adibning mustaqillik g'oyalariha hamohang bo'lган asarlari bugungi kunda ham zamondoshlarimiz tomonidan sevib mutolaa qilinmoqda.

A.Qahhorning serqirra ijodi adabiyotshunoslikda atroficha tadqiq qilindi va qilinmoqda. Xususan, Ozod Sharafiddinov, Matyoqub Qo'shjonov, Baxtiyor Nazarov, Umarali Normatov, Ibrohim Haqqul singari adabiyotshunos olimlarning tadqiqotlarida Abdulla Qahhor ijodiga xos ko'pgina fazilatlar ochib berilgan. Ayniqsa, istiqlol yaratib bergen erkin va xolis mezonlar asosida adabiyotni o'rghanish va tadqiq qilish davrida adib ijodining hali ochilmagan yangi qirralarini kashf etishda munosib ishlar amalga oshirilmoqda.

Shu ma'noda, A.Qahhorning obraz yaratishdagi mahoratini bugungi kun nuqtai nazaridan tahlil qilib, asarlaridagi misollar asosida asoslab berish o'rnlidir.

Misol tariqasida olsak, «Sarob» romanida o'tgan asrning boshlarida ijtimoiy omillar ta'sirida yuz bergen voqealar favqulorra bir mahorat bilan tasvirlangan. Bu asar tarixiy mavzuda yozilgan, lekin qahramonlari tarixiy shaxslar bo'lmasa ham tarixiy haqiqatga mos, yozuvchi fantaziysi bilan yaratilgan obrazlar bo'lib, tarixiy voqealarga nisbatan ko'proq umumlashtirilgan shaxslardir. «Sarob» notinch yillar ruhiga mos va hamohang bo'lib, davr voqeligi tasviriga bag'ishlangan birinchi romandir. Unda jamiyatda bo'lib o'tgan mafkuraviy kurash tasvirlangan.

Asarni bir eslab ko'raylik. «Sarob»da Abdulla Qahhor Saidiy taqdirlini batafsil tasvirlaydi, Murodxo'ja domla, shahar maorif bo'limining mudiri Salimxon, adabiyotshunos Abbasxon, tergovchi Mirza Muhiddin, Munisxon, Soraxon, jurnalist Yoqubjon, savdogar Muxtorxon kabi bir qator obrazlarning har birining o'ziga xos xarakteri, ichki dunyosi, ruhiyati, maqsadu niyatlarini yorqin aks ettiradi. Ayniqsa, Murodxo'ja domla xarakteri jonli va to'laqonli qilib gavdalaniadi.

Abdulla Qahhor ajoyib hikoya, qissa va romanlar yaratish bilan birga, adabiyotning eng qiyin janri bo'lgan dramaturgiya sohasida ham iste'dodini namoyish etdi. Adibning dramaturgiyada ko'targan mavzulari hanuzgacha dolzarb bo'lib turibdi. Uning «Yangi yer», «Og'riq tishlar», «Tobutdan tovush» kabi komediyalari o'zbek dramaturgiyasi taraqqiyotida yangi bosqich bo'ldi.

Mana shu asarlarida ham A. Qahhor haqiqiy obraz yaratish, ta'sirchanligini yuqori nuqtalarga yetkazishni asosiy ishlardan biri deb bilgan.

Masalan, «Yangi yer» asarida adib zamondoshlari obrazi, yorqin xarakterlar yaratishda katta yutuqlarni qo'lga kiritgan. Komediyada Dehqonboy, Hafiza va Qo'ziyev kabi sofdir, vijdonli yoshlarning umumlashma obrazlari, Mavlon aka singari mehnatsevar, sodda, halol, biroq manmanlikka berilgan o'jar kishi obrazi, shuningdek, Hamrobuvi va Xolnisoga o'xshagan samimiyl va mehribon ona obrazlari ishtirok etadi.

«Og'riq tishlar» komediyasiga chuqurroq nazar tashlasak, asarda zamonaviy mavzu aks ettirilganligi, ammo asarda hayotdagi jamiyat taraqqiyotini idrok etadigan kishilar emas, balki kelajak yo'liga to'siq bo'layotgan shaxslar tasvirlanayotganligining guvohi bo'lasiz. Bu, albatta, asar janr xususiyati bilan bog'liq. Komediyada zaharxanda kulgi – satira ustun turadi. Avvalo, dramaturgning ustaligi shundaki, u asarning markaziy obrazlarining biri hisoblangan Zargarov singari noplak illatlarni aks ettiruvchi kimsalarni fosh etish asosida halollikni, tenglikni, insoniylikni, adolatni targ'ib etadi. Zargarovning sharmandayu sharmisor bo'lishini ko'rsatishda



satiradan ustalik bilan foydalanadi. Natijada, Zargarov obrazini jonli va juda ishonarli ko‘rsatishga erishadi.

Xulosa qilib aytganda, o‘tgan asrning murakkab muhitida yashab, ijod qilgan, Istiqlolimizni astoydil qo‘msagan,adolat mavzusini o‘ziga bayroq deb bilgan betimsol so‘z san’atkori Abdulla Qahhor o‘zbek adabiyotini betakror badiiy obrazlar hisobiga boyitdi va bu boradagi yutuqlari adibning yetuklikka ko‘tarila olganligidan dalolat beradi.

Foydalaniłgan adabiyotlar:

1. Abdulla Qahhor . Asarlar (5tomlik). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot, 1987-1989.
2. Abdulla Qahhor “Zilzila”,-“Sharq yulduzi”, 1996, 11-12-sон.



YASSAVIY HIKMATLARINING TARBIYAVIY AHAMIYATI

Rustamova Hilola,

Xorazm viloyati Xonqa tumani

16-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Atayeva Zubayda,

Xorazm viloyati Urganch shahar

12-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqola Ahmad Yassaviyning hikmatlari va ularga xos xususiyatlar, ularning tarbiyaviy ahamiyati, nafsga qarshi kurash masalasi, Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishishi haqida so'z yuritiladi.

Kalit so'zlar: hikmatlar, tasavvuf, shariat, tariqat, ma'rifat, tarbiya, oshiq.

Ahmad Yassaviy – mutasavvuf shoir. Adib tasavvufni inson ma'naviyatini yuksaltiruvchi muhim sifatida biladi. Bundan maqsad insoniyatni to'g'ri yo'lga da'vat etishdir. To'g'ri yo'l haqiqatni anglashga olib kelmoq kerak. Haqiqatni anglash o'zlikni anglashdir. Bunga erishmoq uchun kishining hidoyat yo`liga kirmog'i, butun kuch va vujudini shu yo`lga qaratmog'i kerak. Ahmad Yassaviy hikmatlarining tasavvuf falsafasiga tegishli jihatlari ustida mulohaza yuritganda, oshiqning shariat, tariqat, ma'rifat bosqichlaridan o'tib haqiqat martabasiga yetishini eslash o'rinni bo`ladi. Shoир bu bosqichlarda islom dini hukmlarini o'zida mujassam etgan shariatni yaxshi bilish zarurligini uqtiradi.

Ahmad Yassaviyning barcha hikmatlariga xos yana bir xususiyatni ta'kidlash o'rinni bo`ladi. Badiiy asarlar ta'sirchanligi, musiqiy ohangi, jozibasi bilan kishini o'ziga jalb qiladi shu asnoda ular insonlar ruhini tarbiyalaydi. Adabiyot insonlarga dunyo hodisalarini mohiyatini anglash, insonga xos tuyg'ularning rangin qirralarini his eta olish, insoniy fazilarlar va nuqsonlar mohiyati haqida o'ylash imkonini beradigan, har bir shaxsni ruhiy kamolot hamda yuksak ma'naviyat egasi sifatida shakllantiradigan muhim vosita hamdir. Adabiyot go'yo yerdan otilib chiqayotgan toza buloq suviga o'xshaydi. O'sha buloq suvining bir tomchisi ham jonimizga huzur bag'ishlagani kabi adabiyot ham sekinlik ila qalbimizning tubtubiga singib, hayot davomida orttirgan qalb jarohatlarimizga malham bag'ishlaydi. O'qiyotgan har bir asarimiz bizni yangi olamga, turfa taqdirlar, chigal qismatlar ro'parasiga olib chiqadi. Asar voqealari bilan ulg'ayib, mashaqqatli yo'llarni ortda qoldirib, nurli tonglarni qarshilab, muammolar yechimiga guvoh bo'lamiz.

Bu yechim esa bizga xatolarimizni tan olib, nurli kelajak uchun dadil qadam tashlashga undaydi. Inson uchun bugungi kunda tansiq bo'lib borayotgan mehrning ulug'ligini atoqli adibimiz Said Ahmadning "Qorako'z Majnun" hikoyasini o'qib guvoh bo'lganmiz. Oddiy jonivorning egasi Saodat ayaga bo'lgan mehri biz insonlarni larzaga soladi, tarbiyalaydi... Asarni o'qirkannamiz har tomonlama mukammal qilib yaratilgan inson ham orzu havaslar, yolg'on ishq – muhabbat ortidan quvib qiymati tengsiz, olmosdek kamyob mehrni unutib, Bo'rixonning ahvoliga tushadi. Ajdodlari avaylagan qadri baland milliy qadriyatlarni unutib qo'yadi. Bu – nafsga qarshi kurash masalasi. Shoир hamma vaqt nafsdek baloyi azimni yenga olmagan odamga achinadi, unga tanbeh beradi. Nafsni jilovlagan odam sabr-qanoatga erishadi. Agar oshiq bo'lsa, bunday sabrli ishq egasining "mahshar kunida armoni" bo'lmaydi. Ishq muhokamasiga doir ushbu hikmatning boshqa bir bandida "Nafsni tepib dargohiga loyiq bo'lg'il" deb ta'kidlanadi. Bu nafsini yenggan va uning istaklarini bartaraf etgan odamgina chin oshiqlik martabasiga ko'tarila olishiga doir mulohazadir. Ishq tushding, o'tga tushding, kuyib o'loding, Parvonadek jondin kechib axgar bo'loding, Dardga to'loding, g'amga to'loding, telba bo'loding, Ishq dardini so'rsang hargiz darmoni yo'q. Ushbu bandda chin oshiqning holi yana ham kuchaytirib ko'rsatiladi. Ishq dardiga uchragan odamda juda katta ruhiy o'zgarishlar bo'ladi. Ahmad Yassaviy uni bamisolai o'tga tushgan odam holiga qiyoslaydi. Ikkinchidan, sham tegrasida aylanib kuygan, axgar (laxcha cho'g') bo'lgan kapalakka o'zshatadi. Eng muhimi, ishq o'tida dard, g'am hamda telbalik bor. Ammo bu dardning darmoni topilgan emas. Boshqa bir mumtoz vas sho'ir ta'biri bilan aytganda "bu dardni bedavo derlar" (Mashrab). Ishqning bunday xususiyatlarini ta'riflab Alisher Navoiy "Mahbub ulqulub" asarida yozadi: "buni ko'rmagan kishi bo'lmas va bunga yetmagan kishi bovar (ishonch) qilmaskim, hijron- ufiroq mundin iboratdur...". Shu ishq tavsifiga bag'ishlab Navoiy "Layli va Majnun" dostonini tozgani



sizga ma'lum. Ahmad Yassaviy ta'kidlaydiki, ishq odamning “Majnun sifat aqlin olib laylo qilur”, yana davomidan ta'kidlaydi – “Olloh haqqi bu so'zlarni yolg'oni yo'q”. Yassaviy har vaqt nafs haqida gapirganida unga insonning kamolotiga xalaqit beradigan yovuz va yaramas kuch sifatida baho beradi. Nafsga “shum” sifati beriladi. Shuningdek, shoir “nafsi bad”, “nafs yo'li”, “nafs ilgi” singari istioralarni ham qo'llaydi. Adib to`g'ridan to`g'ri nafsga qarshi kurashni , uning yo'rig`iga yurmaslikni targ`ib qiladi. Nafsnинг domiga ilinish insonni qanchalik yer bilan yakson qilishini juda yorqin ifodalarda ko`rsatib beradi. Nafs yo'lig`a kirgan kishi rasvo bo'lur, Yo'ldan ozib, toyib, to'zib gumroh bo'lur. Yotsa, qo'psa shayton bilan hamroh bo'lur, Nafsni tepkil, nafsni tepkil, ey badkirdor.

Foydalilanladigan adabiyotlar ro'yxati:

1. B. To`xliyev, B. Karimov. Adabiyot. 8-sinf darsligi. Toshkent. 2017-yil.
2. Ahmad Yassaviy. Hikmatlar. Toshkent. 1991-yil.



**O’ZBEK TILI O’QITISH METODIKASI FANINING MAQSADI,
VAZIFALARI, BOSHQA FANLAR BILAN ALOQASI.**

Isayeva Manzura Omonovna
Kulshanova Rauan Pirnazarovva
Navoiy viloyati Uchquduq tumani
4-umumi o’rta ta’lim maktabining
o’zbek tili fani o’qituvchilari
Telefon : +998(94)254 66 88
shokirova_188@mail.ru

Annotasiya: Hayotda har bir shaxs, jamiyat va davlat manfaatlarini ko’zlagan holda amalga oshirilishi, o’quvchilarni dunyo qarashlarini milliy istiqlol masfurasi asosida to’g’ri shakllantirish.

Kalit so’zlari: O’zbek o’qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog’liq holda ish olib borish .

O’zbek tili o’qitish metodikasining asosiy maqsadi til imkoniyatlaridan to’g’ri, aniq, o’rinli va unumli foydalanish ko’nikma va malakalarini hosil qilish, mantiqiy — ijodiy tafakkurni rivojlantirish, kommunikativ savodxonlikni oshirish, o’quvchilarda milliy istiqlol g’oyasini shakllantirish va talaba shaxsini ma’naviy boyitishdan iborat. Til o’qitish metodikasining asosiy vazifasi O’quvchilarni erkin, ijodiy, mustaqil fikrlarini og’zaki va yozma shaklda, adabiy til meyorlari asosida to’g’ri ifodalay oladigan, bir ma’noni turli holatlarda berish ko’nikmasi shakllangan yetuk murabbiylarni tarbiyalab yetkazishdir.

O’zbek tili o’qitish metodikasi fani o’zining nazariy asoslariga va ilmiy tadqiqot metodlariga ega. Bular quyidagilar:

1.Kuzatish. Tilshunos va metodist olimlar ilmiy anjumanlarda, vaqtli matbuotlarda, berib borilayotgan uslubiy maqolalarni, pedagogik o’qishlarda o’qilayotgan ma’ruzalarni o’qib va eshitib, kuzatib boradilar, zamonaviy dars namunalarini kuzatib, ulardan tegishli xulosalar chiqaradilar. Bu usul orqali o’zbek tili o’qitish bilan bog’liq muammolar o’rgatiladi, yangicha qarashlar va metodlar aniqlanadi.

2.Tajriba o’tkazish. Metodist — olimlar o’z ilmiy tadqiqotlari yuzasidan erishilgan natijalar haqida ilmiy anjumanlarda o’rtoqlashadilar, o’zlari ilgari surayotgan, qo’llamoqchi bo’lgan metodlarini asosli va ishonchli mezonlar asosida ma’lum maktab yoki akademik litseylarda tajribadan o’tkazadilar. Natijalarni tahlil qiladilar. Bu usul tavsiya qilinayotgan ilmiy va uslubiy farazlarning ishonchlilagini, asosli ekanligini isbotlashga zamin yaratadi.

3.Test o’tkazish. Bu usul orqali o’quvchilarning nazariy bilimlari, ko’nikma va malakalari o’rganiladi. Test savollari o’tkazish o’quvchi va O’quvchilarning bilimi, egallagan amaliy ko’nikmalari haqida umumlashgan xulosalar chiqarishga imkon yaratadi.

4.Anketa va savol varaqalari tarqatish. Bu usul orqali o’qituvchi va o’quvchilarning fanga bo’lgan munosabati, qiziqishlari va istaklari o’rganiladi.

5.Metodik merosni o’rgatish. O’zbek tilini o’qitish tarixi qadimgi davrlarga borib taqalsa-da, uni o’qitish metodikasi uzoq tarixga ega emas.

O’tmishda yashab ijod etgan Al-Xorazmiy, Forobiy, Ibn Sino, Beruniy, Zamaxshariy, Navoiy kabi ijodkorlar asarlarida ta’lim-tarbiya bilan, o’qitish bilan bog’liq fikrlar mavjud bo’lsa-da, aynan o’zbek tilini qay usulda o’qitish bilan bog’liq fikrlar uchramaydi. Al-Xorazmiyning “Sezish orqali bilish bu qisman bilish bo’lsa, mantiqiy bilish bu haqiqatdir”, Abu Nasr Forobiyning “Bilim, ma’rifat, yaxshi axloq bilan bilimdon, ma’rifatli, yetuk, mukammal inson yetishadi. Buning uchun ta’lim — tarbiya o’qituvchi tomonidan to’g’ri tashkil etilishi, boshqarilishi va ma’lum maqsadlarga yo’naltirilishi lozim” degan fikrlari o’zbek tili o’qitish metodikasida ham bosh vazifasini o’taydi.

XX asr boshlariga kelib an’anaviy o’qitish usullari yoniga Yevropacha o’qitish usullari ham kelib qo’shildi. Mahalliy ziyyolilardan Fitrat, Munavvar qori, Hamza, A.Avloniy, Qori Niyozov, Qayum Ramazon, Murod Shams, Majid Qodiriy kabilar darslik va qo’llanmalar yaratishda faol ishtiroy etdilar. 1940-yillarda S.A.Fvesaloniskiyning “O’zbek tili o’qitish metodikasi” qo’llanmasi bosilib chiqdi. Qo’llanmada nutq o’stirish va insho masalalariga keng o’rin berilgan, morfologiya va sintaksis o’qitish metodikasiga alohida e’tibor berilmagan. 40—yillardan boshlab o’zbek olimlari



til o'qitish muammolari bilan bog'liq tadqiqot ishlari olib bora boshladilar. 1944 yilda M.Shams "Orfografiya o'qitish metodikasi", K.Xayrullayev "Tipik orfografik xatolar va ularni bartaraf etish" mavzusidagi tadqiqotlarni amalga oshirishdi. M.Shams 1950-yilda "O'zbek tili o'qitish metodikasi" qo'llanmasini nashr ettirdi. 1952- yilda esa "O'zbek tili o'qitish metodikasi"ning 1-qismi F.Kamol tahriri ostida nashrdan chiqdi. 1960-yilda H.Rustamovning "Sintaksis va punktuatsiya o'qitish metodikasi", 1963-yilda N.Abdurahmonovning "O'zbek tili o'qitish metodikasi" kitoblari nashr ettirildi. 1975-yilga kelib esa ancha mukammal darslik Y.G'ulomov, I.Rasulov, H.Rustamov, B.Mirzaahmedovlar tomonidan yaratildi. Bu darslik ham "O'zbek tili o'qitish metodikasi" deb nomlanadi. Ushbu darslik hozirgi davrgacha amalda qo'llanib kelindi. 1960-80-yillar davomida metodika bo'yicha ishlari ko'lami ko'paydi. Hozirgi davrda ham o'zbek tili o'qitish metodikasi bo'yicha ilmiy — tadqiqotlar keng olib borilyapti. O'zbek tili o'qitish metodikasi birinchi navbatda falsafa va umumiyl tilshunoslik bilan, tilshunoslikning nazariy asoslari bilan chambarchas bog'liq. Maktablarda o'qitiladigan o'zbek tili predmetining ilmiy asosini va mazmunini, dastavval til haqidagi fan belgilab beradi. O'zbek tili o'qitishning to'g'ri tashkil etilishi va samarali bo'lishi til to'g'risadagi lingivistik xulosalarning ilmiy va aniq bo'lishiga bog'liq. O'zbek tili o'qitish metodikasini va uning taraqqiyotini tilshunoslik fanisiz tasavvur etib bo'lmaydi.

O'zbek o'qitish metodikasi pedagogika va psixologiya fanlari bilan ham bog'liq holda ish olib boradi. Pedagogika ta'lim — tarbiya prinsplarini belgilab beruvchi fandir. O'zbek tili darslarida ham ta'lim prinsplari qo'llanadi.

Pedagogika fanining didaktika qismi o'zbek tili o'qitish metodikasining nazariy asosi hisoblanadi, o'zbek tili o'qitish metodikasi didaktikasining hamma prinsplariga tayanadi. O'qituvchi o'z o'quvchilarining psixologik qobiliyatlarini o'rganishi, o'zbek tili materiallarini tushuntirishda ularni hisobga olishi zarur.

O'qituvchi o'z faniga nisbatan o'quvchilarda qiziqish uyg'ota olishi, ularning diqqatini jalb eta olishi, shu materialni esda saqlab qolish yo'llarini qo'llashi lozim. Bu ishlarning barchasi o'zbek tili o'qitish metodikasining psixologiya bilan bog'liqligini ko'rsatadi.

O'zbek tili o'qitish mazmuni

Ta'lim mazmuni davlat va jamiyat talablariga ko'ra, pedagogik texnologiyalarning eng so'nggi yutuqlari asosida belgilanadi, shakllanadi. Ta'lim mazmunini shakllantirish zamonaviy pedagogikada 4 ta muhim tarkibiy qismlar hisobiga amalga oshiriladi.

1.O'quvchilar egallashi zarur bo'lgan bilimlar tizimi (til fanlari, tushunchalar , qoidalar va ta'riflar tizimi)

2.Tanlangan ilmiy — nazariy bilimlarga muvofiq keladigan amaliy ko'nikma va malakalar tizimi

3.O'quvchilarni ijodiy faoliyat usullariga o'rgatish. Faoliyat qayta xotirlash, qisman ijodiy va ilmiy — ijodiy darajada bo'lishi mumkin

4.Talaba va o'quvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tizimi o'zbek tili o'qitish mazmuni fonetika, leksikologiya, grammatika, uslubiyat, to'g'ri talaffuz, to'g'ri yozish, so'z tanlash va gap tuzish, ijodiy fikrlash, fikrni to'g'ri, aniq ifodalash, ifodali o'qish, matn ustida ishlash va matn yaratish faoliyatlarini qamrab oladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro`yxati

1. Umumiy o'rtata'limning davlatta'lim standarti va o'quvdasturi.O'zbek tili.Adabiyot.O'zbek tili (ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan maktablar uchun) . Toshkent. "Sharq" nashriyoti—matbaa konserni. 1999-yil, 1-maxsus son.

2. A.G'ulomov, M.Qodirov "O'zbek tili o'qitish metodikasi" Toshkent. "Universitet" nashriyoti. 2001-y.

3. "O'zbek tilining asosiy imlo qoydalari" Toshkent. "O'qituvchi" nashriyoti 1995-y.



ONA TILI DARSLARIDA MATN USTIDA ISHLASH USULLARI

Mamatova Nargiza Saydjalolovna

Namangan viloyati Norin tumani
27-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTASIYA: O'quvchi nutqining mukammal san'at asaridek jozibali, ta'sirchan, shu bilan bir qatorda aniq va ixcham shaklda ifodalanishi uchun anchagina mehnat talab etiladi. Ushbu maqlada shu haqida fikrlar keltirilgan

TAYANCH SO'ZLAR: Tasviriy matn, hikoya matni, muhokama matni, diagramma matni, audiomatn, mumtoz matn, she'riy matn....

Matnlardagi iste'moldagi tarixiy so'zlar, nofaol yoki o'zlashma so'zlar izohini o'rganish, matnda ilgari surilgan g'oynani aniqlash barobarida har bir punktuatsion, orfoepik qoidalariga asoslangan amaliyotlarni ham diqqat bilan o'rganmoq mahorat Maktabini o'taydi Demak, ona tili ta'limi o'qituvchisining vazifasi shogirdini ana shunday mahoratni egallashiga yo'l-yo'rqi ko'rsatishdir. Quyida matn ustida ishlash texnikasini shakllantirishga yo'naltirilgan didaktik topshiriqlardan namunalar keltiramiz.

1. Matn g'oysini aniqlash. "Jadvalli test" usuli yordamida matnni didaktik tahlil qiluvchi topshiriq. Bunda o'quvchi ko'pvariantlilikka asoslangan topshiriqlar ustida ishlaydi. Natijada bir tomonidan didaktik tahlil orqali matnning ta'limiy va tarbiyaviy jihatlari ochilsa, ikkinchi tomonidan esa o'quvchining fikrlash doirasi o'rganiladi:

ROSTGO'Y BOLA (Turkman xalq ertagi)

Bir kishining o'g'li bo'lgan ekan. Ularning qirqta oltin tangasi bor ekan. Otasi shu qirq oltin tangani o'g'lining eski choponi yoqasiga tikib, uni savdogarlarga qo'shib yuboribdi.— O'g'lim, hecham yolg'on gapirma, halol bo'lgin, — deb o'g'liga buyuribdi. Savdogarlar yo'l yurishsa ham mo'l yurishibdi, bir joyga yetib borishganda ularga qaroqchilar hujum qilishibdi. Qaroqchilar o'zaro maslahatlashib, „mana bu yalangoyoqqa u-bu narsa bersakmikin“ deyishibdi. Qaroqchilardan biri bolani masxara qilib so'rabdi:— Ey, yalangoyoq, sendan nimani ham olish mumkin?

— Menda qirqta oltin tanga bor, — deb javob beribdi bola.

— Senda qirqta oltin tanga nima qilsin? — deyishibdi qaroqchilar kulib.

Shunda bola chophonining yoqasini yirtib, oltin tangalarni ko'rsatibdi.

— Nega bularni bizga ko'rsatding? — deb so'rashibdi qaroqchilar. — Biz senga pul bermoqchi edik, endi bo'lsa buni ham olib qo'yamiz.

— Hechqisi yo'q, otam halol bo'l, yolg'on gapirma, deb o'rgatgan, — deb javob beribdi bola.

Hayron bo'lgan qaroqchilar savdogarlarga mol-mulkini, pullarini qaytarib berib, halol mehnat qilish uchun qaroqchilikdan voz kechishibdi. (144 ta so'z) Topshiriqlar bir necha variantli javoblardan iborat, to'g'ri deb javoblarni shartli belgilarni asosida beriladi.

2. Mumtoz matn ustida ishlash ko'nikmasini shakllantirish

Bilamizki, mumtoz matnlarning aksariyati aruz vaznida yozilgan she'riy asarlardir. O'quvchini bunday matnlarni tahlil qilishi uchun, avvalo, ko'nikma hosil qilish kerak. Buning uchun, avvalo, "uy ishi"ga barmoq vaznidagi she'riy asarlarni nasriy yo'l bilan mazmunini yoritish kabi mustaqil vazifalar berib borilsa, gap tarkibidagi o'zgarishlar(inversiya)ni to'g'ri qabul qiladi va gaplarni odatdagagi tartib bo'yicha joylashtira olishni o'rganadi. Kichik-kichik tarqatmalar shaklida mustaqil bajarish uchun qo'shimcha mashqlar beriladi.

3. Nazorat ishlari tahlili: a) Xatolar ustida ishlash.

Bilasizki, yozma nazorat sinovi o'tkazilgandan so'ng, albatta, uning tahlili uchun qo'shimcha bir soat ajratiladi. Negaki, aniqlangan xatolarning yo'l qo'yilishiga sabab nimada ekanligini o'rganilmasa, o'z vaqtida bartaraf etilmasa, bu kichik-kichik xatolar e'tiborsizlik tufayli nutqiy savodxonlikda jiddiy nuqson paydo bo'lishiga olib keladi. Eng avvalo, o'quvchini o'z ishini tahlil qila olishi va o'zga ishlar bilan qiyoslay olishi hamda bera olishiga o'rgatish lozim. Bunda ishoraviy, imloviy, uslubiy xatolarni bartaraf etishning oddiy usuli hamkorlikda: jamoa bilan ishlash yaxshi natija beradi. Yozuv taxtasiga yo'l qo'yilgan xatolar birma bir yoziladi. "Bu – meniki!" ta'limiy didaktik o'yini orqali guruuhlar xatolarni ajrata boshlaydi. Ha, anglaganingizdek, uch guruh: tinish ishoraviy, imloviy va uslubiy xatolarni ajratib, uni



to‘g‘ri variant bilan almashtiradi. Shu vaqtning o‘zida javobga izoh berib o‘tadi. b) Didaktik tahlil: Yuqoridagi jadvalli tahlil savodxonlik bo‘yicha xizmat qilsa, mazmunini didaktik tahlil qilish usuli ham o‘quvchining o‘z ishiga xolis baho berishini ta’minlaydi. Jarayonni hamma, o‘zlashtirishi va dunyoqarashi turli, o‘quvchi uchun qulay tashkil etish maqsadida didaktik ta’lim usullaridan biri “Chiroyli nutq sohibi”ni o‘tkazish yaxshi samara beradi. Bunda jamoalar har bir o‘qilgan ijodiy ishga munosabat beradi va baholaydi. Yuqorida ko‘rilgan barcha ta’limiy usullar ona tili ta’limi oldiga qo‘yilgan vazifalarni qaysidir ma’noda ado etishda vosita bo‘lishiga ishonaman. Davlat ta’lim standartida qo‘yilgan talablar: mustaqil va ijodiy fikrlay oladigan, o‘zgalar fikrini anglaydigan –muloqot va nutq madaniyati rivojlangan shaxsni kamol toptirish kabilarni bajarishda xizmat qiladi. Xulosa o‘rnida shuni aytishim joizki, o‘quvchining qaysi sohada faoliyat yuritishidan qat’i nazar, birinchi navbatda, nutqiy savodxonligi mukammal darajada bo‘lishi zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Hasanboyev J., To‘raqulov X., Haydarov M., Hasanboyeva O., Usmanov N. Pedagogika fanidan izohli lug‘at. – Toshkent: Fan va texnologiya. 2009. – B.154.
2. O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi. 4-jild. – Toshkent: O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti, 2002. –B.169.



ADABIYOT DARSLARIDA MAHMUD KOSHG'ARIYNING “DEVONU LUG'ATIT-TURK” ASARI TAHLILI

Vafoqulova Go'zal Ochilovna

Samarqand davlat chet tillar instituti akademik litseyi
ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: Maqolada Mahmud Koshg'ariyning «Devonu lug'atit-turk» asari tahliliga atroficha to'xtalib o'tilgan

Kalit so'zlar: «Devon», «Tangutlar bilan jangnoma», «Uyg'ular bilan jangnoma», «Yabaku bilan jangnoma», Barman, Barsg'an , Qaz.

Mahmud Koshg'ariy Markaziy Osiyoda ilk o'rta asr madaniyatining buyuk arboblaridan. U tilshunoslik, xususan, turkiy tillarni o'rganishda mashhur bo'ldi va tarixda o'chmas iz qoldirdi. Mahmud Koshg'ariy ilmda, tarixda «Devonu lug'atit-turk» asari bilan shuhrat topdi.

«Devonu lug'atit-turk»-adabiy manba. Unda turkiy xalqlar tarixiga oid qadimiy afsona va rivoyatlar, 300 ga yaqin maqol va matallar, hikmatli so'zlar, 700 satrdan oshiq she'riy parchalar o'rinni o'lgan. «Devon»da keltirilgan she'riy parchalardan 150 satrga yaqini islom davri she'riyatiga xos bo'lgan «bayt» tipidagi masnaviy, qasida, g'azal, qit'a parchalari bo'lib, muallif ularni «bayt» deb ataydi.

«Devon»dagi qo'shiqlar ko'proq jangnoma xarakterida bo'lib, ba'zi yirik she'riy parchalarga shartli ravishda «Tangutlar bilan jangnoma», «Uyg'ular bilan jangnoma», «Yabaku bilan jangnoma» deb nom qo'yilgan. Ularda turkiy elatlarning shijoati, qiyinchiliklarga bardoshi, jasurligi, harbiy hiylalar, elparvarlik, mardlik, himmat, mehr va qahr tuyg'ulari tasvirlangan. Qadimgi epik qo'shiqlardan «Devon»da saqlangan ikki yirik asar ko'pchilikning e'tiborini tortadi. Biri «Alp Er To'nga marsiyasi», ikkinchisi «Qish va yoz munozarasi»dir. Marsiya 44 satrdan iborat. Alp Er To'nga turklarning qadimiy qahramoni. Yusuf Xos Hojib tojiklar uni Afrosiyob deb atashini yozgan. To'nga Alp Er yo'lbars kabi kuchli bahodir odam demakdir. Uning Barman, Barsg'an degan o'g'illari hamda Qaz ismli qizi haqida ham ma'lumotlar bor.

Marsiyada Afrosiyob-Alp Er To'nganing achchiq qismati dahshatli fofija, o'rnini to'ldirib bo'lmaydigan yo'qotish sifatida baholanadi.

Alp Er To'nga o'ldimu?

Esiz ajun qaldimu?

O'dlak o'chin aldimu?

Emdi yurak yirtilur.



«Qish va yoz» munozarasi turkiy munozara janrining bizgacha etib kelgan birinchi erkin namunasidir. Unda turkiy elatlarning tabiatni, yashash, tafakkur tarzi, sevinchlari, qayg'ulari aks etgan, tabiatga mehr ifodasini topgan. Asar majoziy tasvirlar, tashbehtar, sifatlashlar, jonlantirish,



engil kinoyalarga boy. Tabiat tasviri:

*Alin topu yashardi
Urut o'tin yashirdi,
Ko'lning suvin ko'shardi
Sigir buva mungrashur.*

Mazmuni:

*Tog' boshlari yashardi,
Qurug' o'tni yashirdi,
Ko'l suvlari toshirdi,
Sigir, buqa ma'rashur.*

Qish bilan yoz bir-biri bilan tortishadi. Bu tortishuvda xalq o'z qarashlarini, yoz va qishga bo'lgan munosabatini ifodalaydi:

*Qish yoy bila to'qushti
Qinir ko'zunug' baqishti.
Tutishqali yaqishti,
Utg'olimat o'g'rashur.*

Yoz aytadi:

*Sendan qochar sundiloch,
Menda tinar qaldirg'och,
Bulbul ko'ylab nag'ma soch
Erkak, ayol juftlashur.*

*Qish bilan yoz to'qnashdi,
Qing'ir ko'z bilan qarashdi.
Tutib olishga intilishdi,
Yutishga tirishar edi.*

Qish yozga aytadi:

*Senda barcha yomonlar
Chibin, pashsha, ilonlar
Dumi gajjak chayonlar
Hamla qilib yugurar.*

"Devon"dagi maqollar

«It isirmas, ot tepmas dema», «Quruq yog'och egilmas», «Uma kelsa qut kelar», «Mehmon kelsa, qut kelar», «Ag'ilda o'g'laq tug'sa, ariqda o'ti unar» .

Mavzu yuzasidan savollar:

1. «Devoni lug'atit-turk» asarida keltirilgan she'riy parchalar mavzusi qanday?
2. «Devoni lug'atit-turk» asarida xalq maqollari nima haqida?
3. M.Koshg'ariy «Devoni lug'atit-turk» asari bilan ilmda qanday yangilik yaratdi?
4. «Devoni lug'atit-turk» asari qaysi hukmdorga bag'ishlab yozildi?
5. «Devoni lug'atit-turk»da qanday she'rlar jamlangan?

Mavzuga doir test:

1. M.Koshg'ariy tilshunoslikda qanday bo'limga asos soldi?

A) qiyosiy tilshunoslik	B) dialektik tilshunoslik
C) qiyosiy-tarixiy tilshunoslik	D) dialektik-tarixiy tilshunoslik
2. Devonda qancha turkiy so'z va iboralar izohlangan?

A) 7000 dan oshiq	B) 7500 dan kam
C) 7500 dan oshiq	D) 8000 dan oshiq
3. «Devonu lug'atit-turk»da qancha maqol va matallar o'rinn olgan?

A) 300ga yaqin	B) 300dan ortiq
C) 400ga yaqin	D) 400dan ortiq

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. B.To'xliyev va boshqalar Adabiyot.(11-sinf va o'rta maxsus uchun darslik-majmua). O'zbekiston milliy esklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti T, 2018
2. B.To'xliyev. Adabiyot (Allarning I kurs talabalari uchun majmua). – T. 2013.



**ONA TILI VA ADABIYOT FANINI O'QITISHDA FANLARARO INTEGRATSIYA
-O'QUVCHILARNI XALQARO BAHOLASH DASTURIGA TAYYORLASHNING
MUHIM OMILI**

Xaydarova Farida Abdumannobovna

Namangan viloyati Norin tumani
27-maktab ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

ANNOTASIYA: Ona tili va adabiyot fanini o'qitishda fanlararo integrasiya – o'quvchilarni xalqaro baholash dasturiga tayyorlashning muhim omili haqida firklar keltirilgan

TAYANCHА SO'ZLAR: Raqamlı iqtisodiyot, PISA, PIRLS,TIMSS, “Al-jabr” matnli topshiriqlar

Mamlakatimiz yangi innovatsiyalar, raqamlı iqtisodiyot taraqqiyoti yo'lida shiddat bilan rivojlanib borayotgan ushbu davrda O'zbekiston kelajagi bo'lgan yoshlarning intellektual salohiyati va fikrlash qobiliyatini har tomonlama qo'llab -quvvatlash, ularning egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarini davlat ta'lim standari asosida shaklantirish hamda xalqaro mezон va talablar asosida baholash tizimini takomillashtirish muhim ahamiyatga egadir. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi “O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida”gi PF-4947 –sonli farmoni bilan tasdiqlangan “2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strat egiyasi” doirasida O'zbekistonda ta'lim sifati monitoringini yangicha xalqaro baholash dasturlari yordamida aniqlash tizimi shakllantirilmoqda. Xalqaro baholash dasturlari deganda PISA, PIRLS,TIMSS kabi dasturlar tushuniladi. PISA –o'quvchilar savodxonligini baholash bo'yicha xalqaro tadqiqot dasturi hisoblanishi barchamizga ma'lum. Dasturning asosiy maqsadi 15 yoshli o'quvchilarning 3 yo'nalishdagi: o'qish, matematik va tabiiy savodxonligini aniqlashdan iborat. Topshiriq qaysi fanga oid bo'lmisin, avvalo, uning zamirida o'qish yo'nalishiga alohida urg'u beriladi. O'qish –matnni tushunish demakdir. Shuning uchun ham biz-onha tili va adabiyot fani o'qituvchilari zimmamizdagi bu mas'uliyatni to'liq anglashimiz kerak.Ta'lim sifatini baholash bo'yicha xalqaro tajribalarni o'rganish va joriy etish jarayonida ta'lim tizimimizda bir qancha bo'shliqlarga duch kelinyapti. O'quvchilarning olgan nazariy bilimlarini hayotga qo'llay olish darajasi yaxshi emas. Xalqaro baholash dasturlari shu kabi kamchiliklarni bartaraf etgan holda dunyo bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlashga asos bo'ladi. Bugungi kun o'qituvchisi o'quvchiga har tomonlama mukammal ta'lim-tarbiya berish uchun universal (qomusiy) bilimga ega bo'lmog'i kerak. Bu esa “fanlararo integratsiya” tushunchasining nechog'li muhim atama ekanligini ko'rsatib bermoqda. O'zbekiston endilikda qator xalqaro baholash dasturlariga a'zo bo'lib, yoshlarning intellektual va kompetentlilik darajasini bilishga, kerak bo'lsa, o'quvchining mantiqiy fikrlashi va layoqatliligini oshirishni ko'zlamoqda. O'quvchilar bilimini xalqaro baholash dasturlari sinovlarida yaxshi natijalarini qo'lga kiritish uchun har bir darsda fanlararo integratsiyani qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Xo'sh, ona tili va adabiyot fanida fanlararo integratsiyani qanday qo'llash mumkin? Ona tili darsida o'quvchilarni mantiqiy fikrlashga o'rgatish, matn bilan ishslash ko'nikmasini rivojlantirish va sinchkovlik talab etiladigan topshiriqlarni qo'llash o'quvchining hayotiy va intellektual ko'nikmalarini oshirishga xizmat qiladi. Masalan, 7-sinf ona tili dasturida berilgan “Biriktiruv bog'lovchilari” mavzusini o'tishda o'qituvchi mavzuni mustahkamlash maqsadida darslikdan tashqari quyidagi matn asosida PISA topshiriqlari tuzishi mumkin:

“Aljabr” matni asosida manti asosida mantiqiy topshiriqlar:

Riyoziyot olimi al-Xorazmiydan inson haqida so'rashdi. Olim shunday dedi:

-Agar inson yaxshi xulq sohibi bo'lsa, u 1 ga teng. -Agar inson husn sohibi bo'lsa, birning yoniga nolni qo'shamiz, 10 bo'ladi. -Agar inson boy bo'lsa, yana bir nolni qo'shamiz-100 bo'ladi. -Agar nasl-nasabli bo'lsa, yana bir nolni qo'shamiz-1000 bo'ladi. -Agar 1 raqami yo'q bo'lib ketsa, insonning qiymati yo'qqa chiqib, nollarning o'zi qoladi. 1-topshiriq: Javobi tanlanadigan test Al-Xorazmiy insonning qanday fazilatini 1 ga tenglashtiradi? A.Uning nasl-nasabini B.Yaxshi xulqini S.Husn sohibi ekanligini D. Boyligini

2-topshiriq:Bir necha javobli test 3. Javobi yoziladigan test: RIYOZIYOT so'zi hozirda qaysi fanni bildiradi? Javob:(Hozirgi matematika fani) 4-topshiriq: Lingvistik topshiriq: Matn



mazmunidan kelib chiqib, bir o‘rinda va bog‘lovchisini, yana bir o‘rinda ham bog‘lovchisini qo‘llang. Qo‘llangan bog‘lovchilar matn mazmuniga ta’sir ko‘rsatmasin. Javob: Agar inson yaxshi xulq sohibi va chiroyli bo‘lsa, uning qiymati 10 ga teng. Agar inson ham yaxshi xulq sohibi bo‘lsa, ham chiroyli bo‘lsa, uning qiymati 10 ga teng.

Ona tili darslarida bunday keng qamrovli topshiriqlarni qo‘llash matematikadan o‘rgangan nazariy bilimlарини hayotiy ko‘nikmalar asosida idrok etish imkoniyatini beradi. Ona tili ta’limida shu vaqtga qadar matn bilan ishlashga juda kam e’tibor qaratilgan. Aksincha, qoidalar til nazariyasiga e’tibor juda yuqori edi. Shuning hisobidan o‘quvchilarda matn mazmuni bilan ishslash, matnda keltirilgan har bir so‘zning ma’nosi yuklatilgan vazifani anglash, tinglab tushunish kabi ko‘nikmalarni shakllantirish mantiqiy topshiriqlar yechimida asosiy omildir. Xulosa qilib aytganda, ona tili va adabiyot darslarida aniq fanlar, tabiiy fanlar bilan fanlararo integratsiyani qo‘llash o‘quvchilarni xalqaro baholash dasturlariga tayyorlashning muhim omili hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Ta’lim sifatini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqotlarni amalga oshirish Milliy markazi. O‘quvchilarning savodxonligini baholash bo‘yicha xalqaro tadqiqot dasturi haqida qo‘llanma.-T.:2019.-6-bet.
2. N.Mahmudov. A.Nurmonov, A. Sobirov. Ona tili.Umumiy o‘rtta ta’lim maktablarining 9-sinfi uchun darslik.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЛМИЙ ТАДКИКОТЛАР: ДАВРИЙ АНЖУМАНЛАР: 8-КИСМ

Масъул мухаррир: Файзиев Шоҳруд Фармонович
Мусаҳҳих: Файзиев Фарруҳ Фармонович
Саҳифаловчи: Шахрам Файзиев

Эълон қилиш муддати: 31.12.2022

Контакт редакций научных журналов. tadqiqot.uz
ООО Tadqiqot, город Ташкент,
улица Амира Темура пр.1, дом-2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Тел: (+998-94) 404-0000

Editorial staff of the journals of tadqiqot.uz
Tadqiqot LLC The city of Tashkent,
Amir Temur Street pr.1, House 2.
Web: <http://www.tadqiqot.uz/>; Email: info@tadqiqot.uz
Phone: (+998-94) 404-0000